| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. (Da'vat bosqichi) (20 minut)** | 1.1. Mavzuning nomlanishi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. **(1 ilova)** | **1.1.**Tinglaydilar, yozib oladilar. |
| **2-bosqich. (Anglash bosqichi) (40 minut)** | **2.1.**Blits so'rov metodi yordamida savol-javob orqali avvalgi bilimlar tekshiriladi**. (2 ilova)**<br>2.2. Ta'limningmetod va shakllarini toifalaydi. **(3 ilova)**<br>**2.3.** Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining shakllari mazmunini yoritib beradi **(4 ilova**)<br>**2.4.**Metod tushunchasiga ta'rif beradi **(5 ilova**)<br>**2.5.**Metod va uning turlari bilan tanishtiradi. **(6 ilova**) | 2.1.Savollarga javob berishadi.<br>2.2.Jadvallarni o'z daftarlariga qayd etishadi.<br>2.3.Mavzu mazmunini o'zlashtirib oladilar |
| **3-bosqich. (Fikrlash bosqichi) (20 minut)** | **3.1.** Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining metodlarini tahlil qiladi. "T-Jadval" metodi yordamida. **(7 ilova)** | 3.1.O'z tasavvurlarini boyitadi va to'ldiradi. "T-Jadval" asosida metodlarning afz0alligi va kamchiligini tahlil qiladi. |

**(2 ilova)**

## Blits so'rov metodi yordamida savol-javob orqali avvalgi bilimlartekshiriladi. (2 ilova)

**1.** Boshlang'ich sinflarda qanday ish turlari o'rgatiladi?

**2.** Gazlama bilan ishlashda nimalarga e'tibor berish zarur?

**3.** Turli materiallar bilan ishlash uchun nimalardan foydalaniladi?

**4.** O'quvchilar mashg'ulotlar jarayonida qog'oz va karton bilan ishlashda nimalar bilan tanishadilar?

**5.** Qishloq maktablarida o'quvchilar qishloq xo'jaligi ishlarining qaysilarini bajaradilar**?**

**6.** O'quvchilardagi mehnat malakasi qanday shakllanadi?

**7.** O'quvchilardagi mehnat ko'nikmasisi qanday shakllanadi?

**8.** Amaliy mashqlar tizimidagi asosiy talablar nimalardan iborat?

**9.** Mehnat malaka va ko'nikmasini shakllantirish bosqichlari?

**10.** Mehnat ta'limining mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak?

**Ta’limningmetod va shakllarini toifalaydi.**

**O’quvtopshiriq**

1. **Qog’ozvaraqlarigaKATTAharflarbilanBITTADAN**

**1. Metod - 1 guruh**

**Shakl  - 2 guruhtushunchalariniyozing.**

**2. Tayyorbo’lishigaqarabvaraqlarniyozuvtaxtasigayopishtiring.**

***Eslatma:* bajarishuchun- 2 daqiqaberiladi.**

| Metodlar | Shakllar |
|---|---|
| Ma’ruza<br>Hikoya<br>Tushuntirish<br>Yo’riqnoma berish<br>Namoyish<br>Ko’rsatish<br>Videousul | Ma’ruza<br>Seminar<br>Amaliy mashg’ulot<br>Laboratoriya mashg’uloti<br>Mustaqil ish |
| Kitob bilan ishlash<br>Laboratoriya usuli<br>Mashq<br>Amaliy ish usuli<br>Vaziyatdar usuli | Kunduzgi<br>Masofaviy |
| Suhbat<br>Bahs<br>Aqliy hujum<br>Ta’limiy o’yin | Ommaviy<br>Jamoaviy<br>Guruxlarda ishlash<br>Yakka tartibda |

**2.3. Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limining shakllari mazmunini yoritib beradi(4 ilova)**




| Mavjudlik usuli | Ta’limni tashkil etish usuli | O’quv ishini tashkil etish usuli |
|---|---|---|
| Sinf ishi<br>Sinfdan tashqari ish | Ma’ruza<br>Amaliy mashg’ulot<br>Laboratoriya mashg’uloti<br>Mustaqil ish | Ommaviy<br>Jamoaviy<br>Guruxlarda ishlash<br>Yakka tartibda |

**2.4. Metod tushunchasiga ta’rif beradi (5 ilova)**



**2.5. Metod va uning turlari bilan tanishtiradi. (6 ilova)**



## MEHNAT TA'LIMINING SHAKL VA METODLARI

**Reja:**

1. Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining shakllari.
2. Metod tushunchasi, uning turlari.

Ilmiy texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Mehnatga o'rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi. Balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy ekspeditsiyalar, agarda unda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyimni yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lar edi.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishni singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush mehnati sohasidagi bilim va ko'nikmalarini singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqdalar.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda, boshqa predmetlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma xil metodlari qo'llanilib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarining rivojlanishiga erishiladi.

**O'qitish metodlari** — bu o'qituvchi va o'quvchilarning ish usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z amaliyotida o'qitishning xilma - xil usullaridan foydalanish mumkin. Bitta darsning o'zida o'qitishning turli usullari qo'llanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarining jamlangan bo'lishiga, ularning charchamasliklari va zerikmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shu narsaga o'rgatishi kerak.

Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish muhimki, bularning barchasiga mustahkam bilim birinchi qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. Nota savodi, gamma va kerakli texnikani egallamay turib Chaykovskiy asarlarini bilib bo'lmaganidek, darsning tekshirilgan klassik shaklini o'zlashtirmasdan turib o'qituvchi o'z uslubini shakllantira olmaydi. O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan yosh o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular mashhur triadani: darslarda suhbat, gapirib berish, laboratoriya ishlari kabilardan foydalanib

o‘zlashtirilganni tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o‘tilganini mustahkamlashni eng boshidan o‘rganishlari lozim. Faqat barchaga ma’lum haqiqatlar o‘zlashtirilgandan keyingina o‘z imkoniyatlari va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo‘llash mumkin.

Mehnat ta’limi bilimlarini egallash, o’zlashtirish, amalda qo’llash va o’quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o’qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog’liq.

Mehnat ta’limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o’quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqur o’zlashtirishini ta’minlashda ta’limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog’ida o’qituvchi o’quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O’quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Ko’r-ko’rona taxminiy yo’l bilan egallangan ko’nikma va malaka tor ma’noda bo’lib, puxta bo’la olmaydi. Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini ko’tarish vazifalariga bo’ysundirilishi kerak. O’quvchilarga berigan topshiriqlar ularni ijodiy izlantirish, ta’lim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim.

Boshlang’ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o’quvchilarning tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O’quv materiallarini o’quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo’li bilan borish maqsadga muvofiq bo’lmaydi. Bunday yo’l bilan borish o’quvchilarning aqliy rivojlanishi ta’minlay olmaydi. Har bir mavzuni o’rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir.

Ko’pgina o’qituvchilar o’qitishning turli metod va usullarini qo’llab shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o’zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini sindirmoqdalar. Bunday o’qituvchilar qo’l mehnatini o’rgatishda o’quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko’nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o’stirishga yordam bermoqdalar.

O‘qitish metodlari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki o‘tilgan buyumning istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo’llay olsinlar.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llanadigan asosiy uslublar tasnifi quyidagichadir:

**1. Og‘zaki bayon qilish. 2 Tushuntirish va hikoya qilish. 3. Yo’riqnoma berish. 4. Suhbat. 5. Mashqlar. 6. Amaliy ishlar. 7. Grafik ishlar. 8. Laboratoriya ishlari. 9. Mustaqil ishlar. 10. Ekskursiya. 11. Kitob bilan ishlash. 12. Kino. Ta’limning texnik vositalari.**

## 1. Og‘zaki bayon qilish metodi ikki shaklda mavjud bo‘lishi mumkin




**Monologik bayon qilish**, bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi.

**Dialogikbayon bo‘lib** bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

**2. Tushuntirish va hikoya qilish**– bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini xona doskasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o’quv materialini bayon qilish.

***Hikoya*** -hodisa, voqea, haqiqat to’g’risida o’qituvchining monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o’rganayotgan materialga qiziqishni uyg’otish uchun qo’llaniladi.

Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy yetkazib berish, san’atkorona, ta’sirchan bayon qilish.

**Hikoya qilish** — bu dastur materialini jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o‘qituvchining o‘zi beradi. Ba’zan suhbat davomida o‘quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agarda bajarilgan ishlar, natural namunalar, rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko‘rsatib qilinsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi. Bu o‘rinda tushuntirayotganingda ko‘rsat, ko‘rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o‘quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga alohida e’tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan material yuzasidan ularga bir ikkita savol berish mumkin.

O‘qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak: U mazmuniga ko‘ra - dasturda nazarda tutilgan barcha o‘quv materialini aniq va to‘liq qamrab olishi kerak;

>bayon etilish shakliga ko‘ra aniq, tushunarli, mantiqiy, iboralari sodda bo‘lishi zarur;

>material qiziqarli va o‘quvchilarning fikrini faollashtiradigan, diqqatini yangilikning asosiy elementlariga jalb qiladigan bo‘lishi lozim.

Hikoyada o‘qituvchini o‘quvchilarbop fakt va tushunchalarga asoslanishi lozim.

Nutq soda va aniq bo‘lmasa, o‘quvchilarning hikoyaga, keyinchalik predmetga bo‘lgan qiziqish so‘nishi mumkin. O‘qituvchining hikoyasida o‘quvchilarning nutqini yangi axborot va so‘zlar bilan boyitish, yangi so‘z va atamalar bo‘lishi, ularning ma’nosini shu vaqtning o‘zida tushuntirishi shart.

Hikoya jarayonini o‘quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun ko‘rgazmali qurollar-tikuvchilik mahsulotlari, natural predmetlar, rasmlar, fotosuratlar vositasida o‘qituvchi voqeani namoyish etib bermog‘i darkor.

**3. Yo’riqnoma (Instruktaj) -mehnat ta’limining samarali metodlaridan biridir.** Yo’riqnomaning maqsadi o‘quvchilarning amaliy faoliyatlarini uyushtirish va yo‘naltirish orqali ularning amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini hamda ularda mehnatga ongli ijodiy yondashishni tarbiyalashni ta’minlashdir. Yo’riqnoma (Instruktaj) olgan o‘quvchiga ishning maqsadi va usullari ravshan bo‘lishi kerak. Yo’riqnoma (Instruktaj)ning **vazifasi** o‘quvchilarga texnologik jarayonni ongli va to‘g‘ri rejalashtirishni o‘rgatishdan iboratdir.

**Yo’riqnoma (Instruktaj) olgan o‘quvchilar**: **ishni ratsional usullarda va to‘g‘ri izchillikda** bajara bilishlari, mehnatni tashkil etishning belgilangan formalari va xavfsizlik texnikasi qoidalarini amalga oshirishlari, yo‘l qo‘yilgan xatolarni ish jarayonida tuzatishlari va ularning paydo bo‘lish sabablarini bartaraf eta bilishlari kerak.

**Yo’riqnoma (Instruktaj) og‘zaki** va yozma, individual, qator yoki guruhga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Og‘zaki yo’riqnoma (Instruktaj) suhbat yoki hikoya qilish metodi orqali berilishi mumkin. Suhbat va hikoya qilish jarayonida ham predmetlar yoki ish usullari namoyish etilishi mumkin.

So‘z va ko‘rsatishning bir biriga munosabati ishning to‘g‘ri va murakkabligiga ko‘ra hal etiladi. **Masalan**, ko‘ylak tikish ishini rejalashtirish nazarda tutilganda asosiy ish tushuntirishga, choklarni tikishga o‘rgatishga, ko‘rsatishga taalluqli bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, biror chokni qanday tikish kerakligi ko‘rsatilayotganda bu harakatning maqsadi albatta tushuntirilishi lozim.

**Yo’riqnoma (Instruktaj)dan so‘ng o‘quvchi** egallagan bilimlarini amaliy mehnat harakatlariga tatbiq etishi darkor. Biroq barcha o‘quvchilar ham yo’riqnoma (Instruktaj)ni bir xilda idrok etmaydilar, birlari kerakli harakatni og‘zaki bayondan tasavvur qila olmaydilar, ikkinchilariga ko‘rsatish, tushuntirish kerak bo‘ladi, uchinchilari tushuntirish vaqtida hamma narsani tushunadilar, biroq ishga kirishgan onlaridayoq, ularni unutadilar. Bu holat ulardagi bilish usulining xususiyatlariga hamda birinchi va ikkinchi signal mavzulari munosabatlarining xususiyatlariga aloqadordir.

Topshiriqning yaxshiroq anglanishi va bajarilishi uchun yo’riqnoma (Instruktaj) jarayonida o‘quvchilarni bo‘lajak ishni rejalashtirishga jalb qilish, topshiriqni bajarishga aloqador masalalarni ular bilan muhokama qilish, instruktaj o‘tkazishda o‘quvchilarning diqqatini o‘ta muhim texnologik jarayonlarga jalb qilish: xavfsizlik texnikasi qoidalarini eslatish lozim.

Hamma ko‘rsatilgan harakatlarni o‘quvchilar mustaqil bajarishlari kerak bo‘lganligi uchun, ular bu harakatlarni aniq va puxta idrok etishlari hamda xotirlab

qolishlari lozim. Shuning uchun ko‘rsatish hajmi bir karra xotirlashdan ortiqcha bo‘lmasligi kerak.

Qo‘l mehnatini o‘rgatishda yozma instruktajdan bot-bot foydalaniladi va u ko‘pgina hollarda og‘zaki instruktaj bilan qo‘shib olib boriladi. Darsda instruksion kartaning mavjud bo‘lishi og‘zaki instruktaj vaqtini ancha qisqartiradi, savollarni deyarli istisno etib, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Yo’riqnoma (Instruksiya) xaritalaridan keng foydalanish lozim.

**Yo’riqnoma (Instruksiya) xaritasi bilan quyidagi** tartibda ishlanadi:

• o‘quvchilarni yo’riqnoma (instruksiya) xaritasi bilan tanishtirish, ularga kartaning tuzilishi va mazmunini tushuntirish, unda qanday ma’lumotlar borligini ko‘rsatish;

• ishning izchilligini qisqacha tushuntirish.

O‘quvchilarningkartabilanishlashlari, kartanio‘qishvaundako‘rsatilganharakatlarnibajarish, bajarilayotganishnikartabilansolishtiribmuvofiqliginitekshiribko‘rishkerak.

Instruksiyaxaritasidagiko‘rsatmalarsonio‘quvchilarniyanadako‘proqmustaqillikkaundashmaqsadidaasta-sekinqisqaribborishikerak.

Yozmainstruktajtarkibidaishningborishjarayoni, xavfsizliktexnikasi, isho‘rninitashkiletishvashukabilarningillyustratsiyalarihamdabayonitasvirlanganko‘rgazmaliplakatlar, jadvallarko‘rinishidahamamalgaoshirilishimumkin.

Mo‘ljallanilishivamaqsadigako‘rakirish, joriyhamdayakuniyinstruktajbo‘ladi.

**Kirishinstruktajida**topshiriqningmaqsadvamazmuniochibberiladi, ishnibajarishusullarivatartibi, ishdasodirbo‘lishimumkinbo‘lgannuqsonlarvaularningoldiniolishyo‘llariko‘rsatiladi. Vaqtni tejash maqsadida kirish instruktaji butun guruh uchun o‘tkaziladi. Ayrim o‘quvchilar kirish instruktajidan so‘ng berilgan ishning hammasini bajarishda qiynaladilar, ana shunday vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilarning ishlarini kuzatish va nazorat qilish asosida joriy instruktajni o‘tkazadi. **Joriy instruktaj butun** guruh uchun ham, guruhning ayrim qismi yoki bir o‘quvchi uchun ham o‘tkazilishi mumkin. Butun guruh uchun joriy instruktaj o‘qituvchi o‘quvchilarning ko‘pchiligida bir xil xarakterli xatolarni sezganda yoki ish (tikish) ning texnologiyasini eslatish zaruriyati tug‘ilganda yoxud xavfsizlik texnikasining buzilish xavfi tugilgan vaqtlarda o‘tkaziladi. O‘quvchining ishini to‘g‘rilayvermaslik, buning ustiga ishning biror qismini ham o‘quvchi uchun bajarmaslik kerak.

O‘quvchiga yo‘l qo‘ygan xatosini anglashiga yordam beradigan yo‘llovchi savol berish, uning ishiga mustaqillik, tashabbuskorlik, bajarayotgan ishiga ijodiy yondashishni uyg‘otadigan qilib aralashish maqsadga muvofiqdir. Biror buyum tayyorlanayotgan vaqtda doskada o‘quvchilar bajarayotgan ishlarining namunasi sifatida tayyor buyumning osig‘liq turishi juda o‘rinlidir.

Yildan yilga, ya’ni 1 -sinfdan 4-sinfga qarab joriy yo’riqnoma (Instruktaj)ning hajmini qisqartirib, o‘quvchilarga ko‘proq mustaqillik berib boriladi.

**Yakuniy yo’riqnoma (Instruktaj)** ish oxirida o‘tkazilib, unda asosiy e’tibor yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil qilishga qaratiladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolar tahlilini shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilarda o‘z ishlarini tahlil qilish malakalari, o‘z xatolarini va ularni bartaraf qilish ko‘nikmasi, psixologik jarayonni takomillashtirish,

shuningdek o‘z ishini baholay bilish ko‘nikmalari asta-sekin shakllanib borsin.

**4. Suhbat turlio‘quv** maqsadlarida, ya’ni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni mavzulashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o‘quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo‘llanishi mumkin.

O‘quvchilarni ulardagi qiziquvchanlikni qo‘zg‘ab, savollar berishga undash foydalidir.

**Umumlashtiruvchi suhbat** yaxshi samara beradi. **Masalan,** 1-sinfda “**Mashinalar - ko‘makchilar**” mavzusi o‘rganilgach, mavzu bo‘yicha bilimlarni mavzuga solish, chuqurlashtirish va mustahkamlash maqsadida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkazilishi mumkin. Suhbatni quyidagi savollar bo‘yicha olib borish maqsadga muvofiqdir:

**1.** Qanday mashinalarni ko‘makchilar deyiladi?
**2.** Qanday ko‘makchi mashinalarni bilasiz?
**3.** Ular kishi mehnatini qanday yengillashtiradi?
**4.** Bu mehnat oldin qanday bajarilardi?

Ba’zan yangi materialni tushuntirishdan oldin ilgari o‘tilgan materialni xotirada tiklash zarur bo‘lib qoladi. Bunday ehtiyoj ko‘pincha chizmalarni chizishda tug‘iladi. Bunday hollarda chizmaning ma’lum qismi qanday izchillikda bajarilganligi qisqa va aniq shakllantirilgan savollar yordamida eslanadi. Oldingi darsda to‘xtalgan joyga kelgandan so‘ng o‘qituvchi yangi materialni tushuntirishni boshlaydi.

Suhbat xuddi hikoya singari ma’lum talablarga javob berishi, ya’ni:

— savollar shunday shakllantirilishi lozimki, ular o‘quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;

— mavzuni ochib berishda izchillik bo‘lishi uchun suhbatning rejasi, oldindan tuzib qo‘yilgan savollari albatta bo‘lishi kerak;

— o‘quvchilarning diqqati qaysi fakt va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o‘quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi: o‘quvchilarda bo‘lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o‘tashi; egallangan bilimlarni amalda qo‘llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak.

**5.Mashqlar** olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib qo‘proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi.

Bu metodning mohiyati borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko‘p karra takrorlanishidadir.

**Masalan,** oddiy choklarni tikish muntazam mashq qilish metodi yordamida mexanik bajarilishgacha yetishi, ya’ni ish tez, tartibli bajarilishi va qaviqlar orasi mutlaq bir xil o‘lchamda bo‘lishi kerak. Boshqa ish turlarida ham (qog‘oz karton bilan ishlash) mana shularga erishish lozim.

Mashqlar guruhli va individual bo‘ladi, ya’ni butun guruh bir xil ishni va barcha o‘quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin.

Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo‘lganligi uchun o‘quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishni saqlash talab etiladi.

Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko‘rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to‘xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

**6.Amaliy ishlar -** bu, egallagan bilimlarni qo’llash bilan amaliy vazifalarni yechish.O’quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo’llashni o’rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o’quvchilarning o’zlari mustaqil tuzishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ko’rgazmali qurollarni o’quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bu metod bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash funktsiyalarini bajaradi, shuningdek vazifani yechish nazorati va o’zgartirishni, bilish faoliyatini kuchaytirishga imkon beradi.

**7. Grafik ishlar** texnik mehnatni o‘rgatishda muhim o‘rinni egallaydi. Biror narsaning chizmasini chizishga butun bir dars, ba’zan ikki dars bag‘ishlanadi. Shuning uchun texnik mehnat darslarida chizmani chizishga kirishishdan oldin, chizmachilikda o‘quvchilarni dastur asosida chizmalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan elementlari bilan tanishtirish lozim.

Chizmani tayyorlashga kirishishdan oldin masshtabning qanday belgilanishini chizg‘ichlar yordamida amalga oshirish zarur.

Chizmalar daftarda emas, balki chizmachilikka mo‘ljallangan albomda bajariladi. Chizmaning butun texnik mehnat ta’limi darslarida bitta albomda bajarilgani qulay, maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning chizmalarini muntazam tekshirish va baholab borish kerak. Chizmalarni qoralama qog‘ozlarga chizish tavsiya etilmaydi. Chizmani bevosita albomga toza qilib chizishga odatlantirish kerak.

O‘qituvchi o‘quvchilardan chizma va yozuvlarni aniq, ravshan va tartibli bajarishlarini talab qilishi lozim. Chizmani aniq bajarmay turib, o‘quvchilarga chizmani materialga to‘g‘ri ko‘chirishga, chizmani o‘qishga o‘rgatib bo‘lmaydi; qo‘l mehnati darslarining asosiy vazifasi esa ana shundan iboratdir.

O‘qituvchi ish sifatini o‘quvchilarning albomlarni qanday tutganligi bilan baholashi mumkin. Amaliy ishlar o‘quvchilarga egallagan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rgatishda yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tuzishlari katta ta’lim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

1-sinfda **„Sinf xonasini yig‘ishtirish“, „Xona o‘simliklarini parvarish qilish“** kabi amaliy ishlarni o‘tkazishdan oldin har bir qator ma’lum topshiriq oladi. Bunda har bir qatorga olgan topshirig‘iga ko‘ra ish rejasini mustaqil tuzishni topshirish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rgazmali qurollarning o‘quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin, bu egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

**8. Laboratoriya ishlari** ta’limning turli bosqichlarida bo‘lishi mumkin. Laboratoriya ishlarining o‘tkazilishi egallangan bilimlarning ishonarlilik kuchini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

Laboratoriya ishlari yangi bilimlarni berish maqsadlarida ham o‘tkazilishi mumkin.

Navbatdagi **„Qog‘ozning xususiyatlari“** mavzusida yangi bilimlarni egallash maqsadida o‘tkaziladigan laboratoriya ishlarini batafsil bayon qilamiz. Agarda asbob uskuna imkon bersa, laboratoriya ishini har bir o‘quvchi bilan alohida, ular yetishmagan hollarda esa qatorlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Laboratoriya ishlari qatorlar bo‘yicha o‘tkazilganda jarayonlarning majburiy minimumini qatordagi barcha o‘quvchilar navbati bilan bajarishlarini, yozuvlarni, rasm solish kerak bo‘lsa, rasmlarni barcha o‘quvchilar bajarishlarini kuzatib borish lozim. Ish oxirida yakun chiqariladi. Bir ikki o‘quvchi ishning qanday borganligi va olingan natijalar haqida axborot beradi. Bulardan so‘ng boshqacharoq fikrga ega bo‘lgan o‘quvchilar gapiradilar. So‘ngra o‘qituvchi har bir qator, har bir o‘quvchining ishini alohida, alohida baholaydi.

Laboratoriya ishlari jarayonida o‘quvchilarda mas’uliyatni his etish, kuzatuvchanlik, diqqatlilik rivojlanadi.

**9. Mustaqil ishlar** - bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig‘i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o‘rinda o‘quvchilar o‘zlarining intilishlarini qo‘llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo‘yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchilar qo‘l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lishi kerakligini his etsinlar. O‘quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo‘lmasligi kerak.

Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o‘quvchilar o‘z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Mustaqil ishlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga, qiziqishlarni, olingan bilimlarni amalda qo‘llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

**10.Ekskursiyalar bilishga** qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik malakalarini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ekskursiyadan so‘ng savol javoblar o‘tkazish lozim. **Masalan,** to‘qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o‘quvchilarga qatorlar bo‘yicha topshiriqlar berish mumkin. Qatorlardan biri ekskursiyadan so‘ng albomni jihozlaydi, yigiruv sexining eng yaxshi ishchilarini yozib chiqadi, rasmlar chizadi, ikkinchisi to‘qishning texnologik jarayonini yozadi, uchinchisi bu ishni bo‘yash sexi bo‘yicha bajaradi va hokazo. Biroq hamma o‘quvchilarning barcha sexlarda bo‘lishlari shart.

**11. Kitob bilan ishlash** Hozirgi kunda mehnat ta’limi bo‘yicha I- IV sinflarga mo‘ljallangan **„Mehnat“** darsliklari asosida o‘qituvchidan o‘quvchilarni kitob bilan ishlashga o‘rgatish talab qilinadi. Bu maqsadlarda qo‘yidagi kitoblardan: **Kuznetsovning „1-2-3-4- sinflarda qog‘oz va karton bilan ishlash“, „Boshlang‘ich sinflarda texnik modellash“, „1-2-3- sinflarda mehnat bo‘yicha albom“, „Boshlang‘ich sinflarda tabiiy material bilan ishlash“** kabilardan ham foydalanish

mumkin.

O‘quvchilarni biror kitob bilan tanishtirishdan oldin o‘qituvchining o‘zi bu kitobni puxta o‘rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O‘quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga asta-sekin o‘rgatib borish kerak.

Bu metod- talabaga o’zi uchun oson sur’atda va eng qulay vaqtda o’quv axboroti ustida ko’p marta ishlash uchun imkon beradi.

**Kitob bilan mustaqil ishlashning maqsadi quyidagilardan iborat bo’ladi:**

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko’z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o’qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konspektlar tuzish;
- mantiqiytuzilmaviy chizmalarni tuzish;
- misol va topshiriqlarni yechish, mashqlarni bajarish;
- nazorat testlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlash.

**12. Kino-ta’limningtexnikvositasi**qo‘lmehnatimashg‘ulotlaridaayrimbo‘limlarnio‘rganish, kasblar, materiallarnitayyorlashtexnologiyasi, xavfsizliktexnikasiqoidalarinitanishtirishmunosabatibilanqo‘llaniladi.

Filmni namoyish qilishdan oldin uning qaysi joylariga alohida e’tibor berish lozimligi ta’kidlanadi. Shundan so‘ng film o‘rganilayotgan mavzuga muvofiq tarzda qismlarga ajratib namoyish etiladi. Har bir qism ko‘rilgach, qisqa suhbat o‘tkazilib, unda o‘quvchilar nimalarni egallaganliklarini, nimalar tushunarsiz bo‘lganligi aniqlanadi.

Filmni namoyish etishda o‘quvchilarni faqat tomosha qilish, ko‘ra bilishga emas, balki ko‘rilganni anglay bilishga ham o‘rgatish lozim.

Aytib o‘tilgan uslublar mehnat ta’limi o‘qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Biroq shunday bo‘lsada, ular oldida ma’lum muammo, ya’ni ta’limning qaysi metodlaridan foydalanib, darsning samaradorligini oshirish mumkin, o‘qitishning rivojlanuvchi kuchini talab darajasidagi yuksaklikka qay yo‘sinda ko‘tarish mumkin degan muammo turadi. O‘qituvchi materialni tushuntirishga birorta yangilik kiritishga, o‘zining ulushini qo‘shishga qanchalik urinmasin va harakat qilmasin, u baribir hikoya qilish, suhbat, laboratoriya ishlari va shu kabi metodlarga albatta murojaat etadi. Shunday ekan, an’anaviy metodlardan voz kechishning hojati yo‘q. Faqat o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini faollashtirish, egallagan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatish uchun bu uslublarni takomillashtirishga zo‘r berish lozim. Buning uchun ma’lum shart sharoitlar talab qilinadi. Bu o‘rinda bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirishning faol jarayoniga qaysi sharoitlar yordam berishini aniqlashgina kerak, xolos.

Bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog‘liq. Mehnat o‘qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning

barcha turlari (qog‘oz va karton, tabiiy materiallar bilan ishlash) ni bir xilda yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o‘z ishida o‘qitishning klassik uslublari bilan birga, pedagogika keyingi yillarda erishgan yutuqlarni qo‘llaydigan o‘qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

O’quv materialini mumkin qadar qiziqarli va o’qimishli qilinganda, u yaxshiroq egallanib, o’quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo’llash osonroq bo’ladi.

Har bir o’quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o’qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo’ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o’quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darslarni to’g’ri tashkil etishda xar xil o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ishlashni oldindan o’ylab qo’yilgan tuzilishi bo’lishi muhimdir. Bo’sh o’zlashtiradigan o’quvchilarga ham, yaxshi o’zlashtiradigan o’quvchilarga ham oldindan alohida topshiriqlar tayyorlab qo’yish kerak.

Har bir o’qituvchiga o’z uslubi, o’z usulining o’ziga xosligiga ega bo’lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko’nikmalarini egallash, ijodiy qobiliyatlarini o’stirish, bilimga qiziqishini o’stirishga yordam beradi.

O’quv jarayonini takomillashtirish, o’qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o’quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligini rivojlantirish o’z navbatida buyumga, mazkur holatda – xizmat ko’rsatuvchi mehnatga qiziqishini rivojlantirishda ko’maklashadi.

Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilarini faqat tikish, qirqish, yelimlash, chizmalar chizishga o‘rgatish vazifasinigina qo‘ymaydi. Bunday o‘qituvchilarning har bir darsi ma’lum bilim yo‘nalishiga ega bo‘ladi.

O‘quvchining har bir darsdagi faoliyati maqsadga yo‘llangan bo‘lishi kerak. Bilish faoliyatidagi eng yaxshi natijaga qo‘yilgan maqsadning o‘zi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lganda erishiladi. O‘quvchilar ishni ishtiyoq bilan va ongli bajarsalar, ular oldilarida turgan har qanday qiyinchiliklarni bartaraf eta oladilar.

**Ta’limda muammoli metodlar.** Agarda dars ma’lum bilish yo‘nalishiga ega bo‘lsa va o‘quvchilar o‘zlarining oldilariga qo‘yilgan vazifani tushunsalar, ular yechimni zo‘r ishtiyoq bilan izlaydilar va o‘zlarining qiziquvchanliklarini qoniqtirishga harakat qiladilar. „**Nima uchun qog‘ozning hajmi kartonnikidan katta bo‘lishi kerak?**“ deb so‘raydigan o‘quvchilar, nima uchun boshqacha emas, shunday qilish lozimligini bilishga qiziqmaydigan o‘quvchilarga nisbatan tug‘ilgan savolning javobini amaliy izlashga kirishadilar. Agarda dars bilish yo‘nalishiga ega bo‘lsa, o‘quvchining tafakkur faoliyati bilinayotgan narsaning muhim xususiyatlarini aniqlashga yo‘llangan bo‘ladi. Bu o‘quvchi **muammoli** xarakterdagi ma’lum masalalarni hal etishga majbur bo‘lgan hollarda sodir bo‘ladi. **Muammoli** vazifalar ma’lum izchillikka ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi yangi materialni bayon etar ekan, shu bayon jarayonida vaqti-vaqti bilan o‘quvchilar oldiga ularni o‘z fikrlarini aytishga undab, bilish masalalarini mustaqil yechish uchun savollar qo‘yadi. **Masalan,** o‘qituvchi **applikatsiyalarni** qanday izchillikda bajarishni talab qiladi. Har qanday vaziyatda ham oldin bitta

muammoni hal etish zarur. Birinchisi hal etilib, keyingisini yechish uchun zamin yaratilgach, ikkinchi muammo qo‘yiladi, chunki yangi fikrlar mavjud bilim va tajriba asosidagina tug‘ilishi mumkin. O‘quvchilar ish bajarish tartibi haqidagi o‘z fikrlarini ayta boshlaydilar. Ma’lum miqdordagi aqliy zo‘r berishlardan so‘ng birinchi muammo hal etiladi. Mehnatga muhabbati, o‘quvchilardagi bilishga qiziqishni rivojlantirib borish zarur, buning uchun esa muammo elementli darslarni muntazam o‘tkazib turish kerak. Bilish qobiliyatlarini doimo, muntazam, ma’lum izchillikda mashq qildirib borish zarur.

Bilish qobiliyati faqat ijodiy ishlaydigan o‘quvchilardagina rivojlanishi mumkin. O‘quvchi faqat o‘zi yaxshi ko‘radigan, qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadigan darslardagina ijodiy ishlaydi. Shunday ekan, eng avvalo o‘quvchilarda predmetga muhabbatni, mehnat ta’limi dasturining hamma bo‘limlariga qiziqishni o‘stirish zarur. Buning uchun o‘quvchilarning qiziqish va moyilliklarini bilish kerak. O‘quv materiali qanchalik qiziqarli qilib berilsa, o‘quvchilar predmetni bilishga shunchalik ko‘proq oshiqadilar. Qiziqish asosida esa predmet va voqelik hodisalarini bilishga ehtiyoj yotadi.

O‘quv materiali mumkin qadar qiziqarli va o‘qimishli qilinganda u yaxshiroq egallanib, o‘quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo‘llash osonroq bo‘ladi.

Agarda o‘quvchilarda qo‘l mehnatining istalgan turiga qiziqish paydo bo‘lgan bo‘lsa, unda bu qiziqish ilgari yoqmagan mavzu va bo‘limlarni egallashda qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Ana shunday vaziyatlarda og‘ir yuk bo‘lib turgan turmush mehnati qoniqish bahsh etuvchi mehnatga aylanadi.

Materialni qiziqarli qilib berish degan so‘z uni faqat qiziq qilish kerak degan ma’noni anglatmaydi. Predmetga qiziqishni tarbiyalash bilan parallel tarzda bilimga ehtiyojlarni yetishmagan bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini ham tarbiyalash lozim.

O‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘qitishning yangi shakl hamda **metodlarini tatbiq qilish** - qiziqishni oshirishga, darsning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligining rivojlantirilishi o‘z navbatida predmetga, mazkur holatda -xizmat ko‘rsatuvchi mehnatga qiziqishni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Aytib o‘tilganidek, har bir o‘quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o‘qitishda individual yondashishni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o‘quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darsni to‘g‘ri tashkil etishda har xil o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashning oldindan o‘ylab qo‘yilgan mavzusi bo‘lishi muhimdir. Bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga ham, yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga ham oldindan alohida tarqatma topshiriqlar tayyorlab qo‘yish kerak.

O‘quvchilarning qiziqish va o‘zlashtirishlari turlichaligini bilgan o‘qituvchi ularning qo‘llaridan keladigan topshiriqlarni oldindan o‘ylab qo‘yadi. Shu orqali u faqat yaxshi o‘zlashtiradiganlarninggina emas, balki bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilarning ham bilish faolligini rivojlantiradi. Topshiriqlar albatta muammo xarakteriga ega bo‘lishi kerak.

Ko‘pgina hollarda o‘quvchilar oldiga ayrim-ayrim qilib emas, balki ularni uch-

to‘rt qatorga ajratib yoki guruh holida muammoni qo‘yish mumkin. Bundan muammoli o‘qitishdan alohida qatorlar bo‘yicha va butun sinf bilan ham uyushtirish mumkin degan xulosa kelib chiqadi. Muammoli masalalarni hal etish uyda ham davom ettiriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, „barcha o‘quvchilarni maksimal tarzda faollashtirgandagina muammoli metodning muvaffaqiyati haqida gapirish mumkin“.

O‘quvchilarda aniq maqsadga qaratilgan rejalashtirish ko‘nikmasini tarkib toptirmay turib, muammoli o‘qitishda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Yangi bilimlarga ega bo‘lish maqsadida darslarda ham tajribalar o‘tkazish, ekskursiyalar jarayonida ham, kundalik hayotda ham kuzatishlarni amalga oshirish mumkin. O‘quvchilar agarda kuzatish materiallaridan keyingi ishlarda albatta foydalanilishini bilsalar, kuzatishlarni bajonudil olib boradilar.

Kuzatishlar jarayonida bolalar materiallarning xususiyatlarini, gazlamaning qog‘ozdan ko‘ra pishiqroqligini, qaysi gazlamaning kamroq g‘ijimlanishini bilib oladilar.

Kuzatishlar o‘quvchilarni predmetga diqqat bilan qarashga, uning xarakterli xususiyatlarini sezishga odatlantiradi. O‘quvchilarga bilimlarni hayotdan olishni ham o‘rgatish kerak. Agarda o‘qituvchi topshiriqda kuzatilayotgan faktlarni kuzatuvchining qo‘lidan keladigan tahlil va umumlashtirishlarni kiritsa, kuzatishlarning samaradorligi yanada ortadi. **Masalan,** to‘qimachilik fabrikasiga uyushtirilgan ekskursiyada to‘quvchi va mexanikning ishini kuzatishni topshiriq qilib berish mumkin. Bu o‘rinda o‘quvchilardan bunday mashina yarim avtomatlarni yaratishga qanchalik aql-zakovat sarflanganiga, sex ishchilari taklif etgan ratsionalizatorlik takliflariga e’tibor berish talab qilinadi. Shuningdek, kuzatishlar kishidan xilma xil bilim va ko‘nikmalarni, ijodiy mehnat uchun esa ijodiy fikr yurita bilishni talab qiladi.

O‘quvchilar maqsadga muvofiq kuzatishni, kuzatish materiallarini to‘plash va ularga ishlov berishni o‘rganib olganlaridan so‘ng bilimlarni mustaqil egallashning murakkabroq usullariga, ya’ni berilgan mavzu uchun materiallarni turli manbalardan (hayotdan, amaliyotdan, turli adabiyot va qiziqarli kitoblar, bolalar gazetasi, jurnallaridan) to‘plab shu materialni umumlashtirishga o‘tish mumkin.

## 2.6.Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’limining metodlarini tahlil qiladi. “T-Jadval” metodi yordamida.

**“T-Jadval” metodi**



## Glossariy

**Mashqlar -** olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.
**Amaliy ishlar -** o'quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo'llashni o'rgatishga yordam beradi.
**Texnik vositalar-**qo'l mehnati mashg'ulotlarida kasblar bilan tanishtirish, amaliy ishlarni bajarilish texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini tanishtirishda turli lavhalar namoish etishda qullaniladi

## Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar


1. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". 0'quv qo'llanma. T., TDPU. 2007-yil.
2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. "Boshlang'ich sinflarda qo g'ozdan amaliy ishlar". 0'quv-metodik qo'llanma. T.,"Navro'z". 2013-yil.


## Qo'shimcha adabiyotlar


1. SanaqulovX.R., XodiyevaD.P., SanaqulovaA.K. "Mehnatta'limi" 2-sinfdarsligi. T., "Nafis bezak" 2012-yil.
2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak". 2012-yil.


## Elektron ta'lim resurslari


1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

## 5-Mavzu: Mehnat darslarida qo'l mehnatidan foydalanishtalablari

**Reja:**

1. **Qo'lmehnatiningusullari.**
2. **Ishxonalaridaishlashvaasboblardanfoydalanishbo'yichaqoidalari.**
3. **Texnikaxavfsizligiqoidalari.**

**Tayanch iboralar:** asboblar, qaychi, bigiz, maxsus pichoqcha,

**O'quv faoliyatining natijasi:**
Talabalar bilishi kerak
1.Qo'l mehnati usullari xaqida ma'lumotga ega buladilar
2.Mehnat darslarida ish joyini to'g'ri tashkil qilish talabalarini o'rganish
3.Amaliy ish qurol turlari va ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishish
4.Sanitariya-gigienik talablari va ularga rioya qilishga o'rganish
5.Dars jarayonida to'g'ri o'tirish va harakatlanishga o'rganish.

Qo'lmehnatigao'rgatishdaboshqafanlarnio'rgatishdabo'lganidek, o'qitishningxilma-xilusullariniqo'llab, ularyordamidao'quvchilarningbilim, malakavako'nikmalariniegallabolishlariga, shunungdekbilishqobiliyatlarinirivojlanishigaerishiladi. O'quvchilar bayon etilayotganaynanbuyumemas, balkio'zso'zlaribilanbuyumnibajarilishini eslashlaritalabetiladi. Biroq,asosiyo'rinnihalihamnamuna, tayyorko'rgazmabo'yichaishlashegallaydi. Hozirgizamonmaktabidarsning zamonaviyliginioshirdi, takomillashtirishdavaungasayqalberdi. O'qituvchidarsgatayyorlanarekan, harbirtayyormavzumazkurdarsuchununingmaqsadvavazifalarigamuvofiqkeladiganishni usulvako'rgazmaliqurollarnitayyorlaydi. Qo'lmehnatidarslaridaodatdabiryokiikkiasbobdanfoydalaniladi, ularniesanavbatchilartarkatadi. Stolning ustida dikkatni chalgitadigan xch kanday ortikcha narsa bulmasligi kerak.

Asboblarni, ayniksa kesuvchi asboblarni charm gilofda saklagan ma'kul. Xar bir gilof asbobning ma'lum turiga mo'ljallangan buladi. Navbatchi ukituvchi asboblarni tarkatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda o'quvchilar tartib va tejamkorlikka urganadilar.

Xamma foydalanadigan asboblar sinf shkaflarda saklanadi, ishdan sung asboblarni o'quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o'quvchiga topshiradilar.

Ish xonasida o'quvchilarga asboblarni ishlatish va saklash qoidalarini eslatib turuvchi plakat – eslatmalar osiglik bo'lishi kerak. Xavfsizlik texnikasiga qoidalariga tulik rioya qilish baxtsiz xodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish qoidalarini o'quvchilar vaqti-vaqti bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu qoidani tushuntirishda ukituvchi nima uchun aynan shunday qilish krakligini, bu qoidalarga rioya kilinmasa kanday xodisalar ruy berishi mumkinligini uktirishi lozim. Xafvsizlik texnikasining barcha qoidalari suzsiz bajarilishi lozim.

Ish xonalarida ishlash va asboblardan foydalanish buyicha qoidalarni kuyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Ish xonasiga fakat o'qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Xar bir o'quvchi fakat uz ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa ravishda kilinadigan bulsa, o'quvchilar uz majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish fakat ukituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishniboshlashdanoldin, ishjoyingnitayyorla, asboblarnito'g'rivakulayjoylashtirish: Ungkulbilanushlanadiganasboblarniungtomonga, chapkulbilanushlanadiganinichaptomongakuy, sanchiladigan, kesadiganasboblarnixechkachonikkitaasboborasigakuyma, ularnidoimouzjoyiga, utkirtomonininarigi, dastasiniuzingtomongakilibkuy. Asboblarni uynama, ular uyinchok emas.
5. Ish vaqtida ish joyingni tartibli sakla.
6. Utmas yoki buzuk asbob bilan ishlama.
7. Asbobni ishlatganda, uni ukituvchi kursatganidek ushla.
8. Asboblarni asra, ularni to'g'ri, uz urnida ishlat, ishlatgandan sung ularni tozalab, yuviladiganlarini yuvib, artadiganlarini artib kuy.
9. Narsani, xar bir detalni oldingi safargidan yaxshirok, chiroylirok, tartiblirok qilishga xarakat kil.
10. Ishni tugatdingmi, ish joyingni tezda tozalab tartibli kilib kuy.

Turli asbob va uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari:

***Qaychidan foydalanish qoidalari.***

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan xolatda sakla.
2. Qaychini uchini yukoriga kilib ushlama.
3. Qaychini ochik xolda koldirma.
4. Qaychini yurib turganingda ishlatma.
5. Qaychini fakat yopilgan xolda uchidan ushlab urtoginga uzat.
6. Qaychini shlatayotganda kesilishning yo'nalishi va materialni ushlab turgan chap kul barmoklarini kuzatib tur.
7. Yaroksiz qaychini ishlatma, ukituvchiga topshir.

***Bigizdanfoydalanishqoidalari.***

1. Bigizni urinsiz ishlatma.
2. Sirti sillik, sirganchik kattik predmetlarni bigiz bilan teshma.
3. Teshiladigan predmetni kulingda ushlama, uni stol, taglik ustiga kuyib tesh.

***Pichokbilanishlashqoidalari.***

1. Uchi yumalok pichokdan foydalan.
2. Pichokni ukituvchi kursatganidek ishlat, kesganda kattik bosma.

***Ninabilanishlashqoidalari.***

1. Ninani ishlatib bulgach, maxsus nina yostikchaga sanchib kuy.
2. Ninanni xch kachon ogzingga olma.
3. Zapas ninalarni ignadonda kuruk xolatda sakla.
4. Ishdan oldin va ishdan keyin ninalarni sanab kur, etishmagan ninalarni albatta top.
5. Qog'oz va kartondan narsalarni yasaganda birinchi teshikni albatta bigiz bilan teshib ol.

Ko’rilgan choralarga karamay sinfda baxtsiz xodisa ruy bersa, ukituvchi birinchi yordamni kursatishi va maktab vrachini chakirishi lozim. Ish xonasida yod, bint solingan aptechka bo’lishi shart.

Boshlang’ich sinf qo’l mehnati darslari uchun o’quvchilar shaxsiy papkalarini kullanilishi 1-3 sinf o’quvchilariga qo’l mehnati darslarini metodik to’g’ri tashkil etish va ularni muntazam o'tqazish imkonini beradi.

Bunday papklarning kulayligi shundaki, unda xar bir o’quvchi dars vaqtida kerakli xamma narsalarga asbablar, materiallar, buyumlarga ega buladi. Papka o’quvchilarga mehnat madaniyati malakalarini singdirishda yordam beradi. Shunungdek, papka o’quvchilarda uz ish joylarini va mehnat jarayonini uyushtirish, ko’nikma xamda malakalarini shakllantirishga xam yordam beradi. Bunday eng oddiy mehnat malakalarini o’quvchilarda birinchi sinfdagi dastlabki qo’l mehnati darslaridan boshlab shakllantira borish va ularni asta-sekin takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

**MEHNAT DARSLARIDA QO’L MEHNATIDA NIMALARNI O’RGANAMIZ ?**



## Test-sinovlari

**1. O'quvchilarni bo'lajak amaliy faoliyatiga tayyorlashda nimalar katta rol o'ynaydi?**

A mehnat malakalari

B mehnat malakalari va ko'nikmalari.

C mehnat ko'nikmalari.

D tarbiya.

**2. Malaka nima?**

A faoliyatning avtomatlashgan komponentidir.

B avtomatlashgan komponent.

C faoliyatning mashq qilish jarayonida yetilgan va avtomatlashgan komponenti.

D faoliyatning mashq qilish jarayonida yetilgan komponent.

Pedagogik texnologiya pedagogning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatilgan tizimli ta'sir natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarning paydo bo'lishini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin.

Ta'lim texnologiyasi ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Bu jarayonni bir tizim deb qaraydigan bo'lsak, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchidan tashqari unga quyidagi tashkil etuvchi elementlarni ham kiritish mumkin: ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, talim mazmuni,ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari, monitoring va baholash. Ta'lim jarayonini tashkil etishda yuqorida sanab o'tilgan elementlarning barchasi muhimdir. Ulardan birortasi chetda

qolsa yoki noto’g’ri tanlangan bo’lsa, tizim ishlamaydi. Demak, ta’lim jarayoni oldiga qo’yilgan maqsadga erishilmaydi.

Ta’lim maqsadlarini boshqacha tarzda o’quv maqsadlari, deb ham atashadi. O’quv maqsadlari ta’lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma’lumki, jonli ta’lim jarayonida ikki tomon: ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi ishtirok etadi. O’quv maqsadlari ta’lim jarayoni ishtirokchilarning qaysi bir tomonidan qaralishiga qarab o’rganish va o’rgatish maqsadlarga ajratiladi. Ta’lim jarayoni natijasida, ta’lim beruvchi, ya’ni o’rganuvchining nimaga erishgani muhim bo’lgani uchun kelgusida o’quv maqsadlari deganda, o’rganish maqsadlarini tushunamiz.

Boshqacha qilib aytganda, o’quv maqsadlari oldindan ko’zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to’g’ri tanlash ta’lim jarayoni uchun o’ta muhimdir.

O’quv maqsadlari muayyan ta’lim jarayoni yakunida ta’lim oluvchi tomonidan o’zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo’lgan, xatti-harakat bilan bog’liq bo’lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni ifodalaydi.

Demak, ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishi ta’lim samaradorligini ta’minlovchi, ta’lim oluvchilarning faolliklarini oshiruvchi omil bo’lib xizmat qiladi. Zero, bugungi axborotlashgan jamiyat davr bilan hamnafas tarzda ta’limni texnologiyalashtirilgan ko’rinishlarda tashkil etishni taqozo etadi. Odamlar asrlar davomida o’z xotiralarini suyakka, toshga, hayvonlar terisiga bitik qilib keldi. Fikrlarning ilk shakli muyyan shartli belgilar bilan ifodalangandir. Dastlabki kitoblar qoyalar bo’lib, ibtidoiy odamlar unga ovchilik qurolya-roqlari, o’rmon va saxroda yashovchi xayvonlarning rasmlarini o’yib ishlaganlar. Yozuvning dastlabki sistemasi piktografiya deyiladi. «Piktos» grekcha, rasm demakdir. Biroq ayni bir rasmning o’zi turli xodisalarni bayon qilishi mumkin. Keyinchalik odamlar yozuvni amalda qo’llashga harakat qilganlar. Masalan, Dajla va Frot vodiylarida loy ko’p bo’lib, odamlar ilk saqifani loy plastinkadan tayyorlab, uning yumshoq satxiga uchi o’tkirlangan qamish bilan uzaytirilgan uchburchak shaklidagn belgilarni qo’yshgan. Yozuvning bu usuli mixxat deb atalgan. Belgilar bilan to’lgan taxtachalar xumdonlarda pishirilib yassi g’isht sahifalar paydo bo’lgan, ulardan sopol kitoblar tuzilgan, albatta, ularning saxifalari birlashtirilmagan yashiklarga joylangan. Osuriya podshohi Ashurbanipal, eramizdan oldingi VII asrda o’z poytaxtida sopol kitoblarning katta kutubxonasini tashkil etgan bo’lib, bu kitob namunalari bizgacha etib kelgan.

Qadim Hindistonda yozuvlar palma barglariga bitilgan. Palma yaproqlarini quritib, ulardan eskiz plastinkalar kirqib olinib keyin tush bilan yozilgan, bu plastinkalar so’ng birbiriga mustahkamlanib, jildi yaxshi silliqlangan taxtachalardan qilingan, ustiga bezak berilib kitob xoliga keltirilgan.

Novgorod ruslari qayin po’stlarida yozishgan. Belgilar suyak sterjen bilan teshigi yukoriga qilib qo’yilgan, undan chizimcha o’tkazilib sterjen hatto belbog’ga osib yurilgan, Bunday kitoblar bizgacha etib kelgan bo’lib, kutubxonalarda saqlanmoqda.

Qadimiy greklar mum kitoblarni ixtiro qilishgan, bu yaxshi tekislangan taxtacha o’rtasidan kvadrat qiyilgan bo’lib, u sariq yoki qora mum bilan to’ldirilgan. Yozuvda esa po’lat cho’pdan foydalanilgan. Bir uchi o’tkir po’lat cho’p bilan yozishgan bo’lsa, ikkinchi dumaloq uchi bilan yozilgan narsani o’chirishgan.

Bir biri bilan biriktirilgan taxtachalardan kitoblar yasalgan, kitob jadval yoki sahifalarning qulayligi shundaki, ulardan uzoq muddat bemalol foydalanish, yozuvni o'chirish va qayta yozish juda oson bo'lgan.

Misrliklar yozish materiallarini nildan olganlar. Nil vodiysi botqoqliklarida hamishga o'xshash o'simliklar mo'l bo'lib, qadim Rim xalqi ularni papirus deb ataganlar. Silliq, poyasi bargsiz bu o'simlikning buyi 4 metrga etardi.

Yozuv quroli uchun poya barglardan tozalanib, uning o'rtasidagi yumshoq g'ovak o'zak olinardi. Undan uzun yupqa plastinkalar qirqilib tik xolda taxlanardi, so'ngra xo'l barg yopishtirilib, presslanardi, ular qurngach sirti pemza bilan sayqallanardi. Papirus sinuvchan bo'lib, uni tiklash mumkin emasdi, shuning uchun misrliklar ularni birbiriga elimlab o'raganlar. Bulardan qilinganeng katta kitob Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanadi. Bir necha ming yillar davomida papirus yagona yozuv materiali bo'lib kelgan unda asosan misrliklar, greklar, rimliklar foydalanib kelganlar. Papirus o'ramlari silindrsimon qutilarga solinib, kutubxonalar tokchalarida saqlangan.

Fergament kitob taxminan eramizning III asrda Kichik Osiyodagi kadimiy shaxar Piramida paydo bo'lgan. U hayvonlar terisidan tayyorlangan, bu anchagina murakkab va ko'p mehnat bilan bajarilgan. Teri maxso's eritmada namlangan, cho'zilgan, quritilgan, keyin kirilgan, sayqal berilgan va tekislangan. Bir kitob uchun butun bir poda mol so'yilgan. Teri kitob papirusga nisbatan bir necha afzalliklarga ega bo'lib, unnng ikkala tomonida bemalol yozish mumkin, bundan tashqari oldingi yozilgan tekstni o'chirib va yangisini yozish mumkin bo'lgan. Pergamentdan hozirgi kunda xam ayrim kitoblar tayyorlanadi. Bir necha daftardan iborat kitobni rimliklar kodeks deb atashgan, Tayyorlash jarayonining murakkabligi, materialining qimmatligi uchun pergament unchalik keng tarqalmagan.

Eramizdan V asr muqaddam Uzoq Sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo'lgan. Bu kam qimmatbaho material bo'lib, madaniyat rivojlana borgan sayin yozish uchun arzon materialga talab orta borgan. Olimlar qog'ozni birinchi marta ipak namati tayyorlanayotgan vaqtda paydo bo'lgan deb taxmin qiladilar. Bambukdan qog'oz tayyorlagan ustaning nomi bizga noma'lum. Bambuk tozalab, maydalab qirqilib bir necha kun ohakka bo'ktirib pishirilgan, keyin sovitilib, uni maydalab epishdoq butqasimon massa paydo bugunga qadar suv qushib aralashtirilgan. Bu bo'tqasimon massa maxsus qovuzga botirilib, tezda qaytib olingan, to'rsimon tortilgan iplar ustida yupqa qatlam xosil bo'ladi. So'ngra ular press ostiga qo'yilib suvi siqib chqarilgandan keyin dolgan yupqa qog'oz varag'i issiq pechda quritilgan. Qog'ozni turda cho'kindi qoldirish usulida tayyorlash hozirgi kundagi qog'oz tayyorlash jarayoni asosida ham bor.

Anchagina pishiq, arzon xom ashyodan tayyorlanadigan qog'oz barcha mamlakatlarda keng qo'llana boshlandi.

Biroq qog'ozni tayyorlashning bu jarayoni juda unumsiz edi, qog'ozga talab esa borgan sari ortardi. Keyinchalik xom ashyoni maydalashda o'g'ir o'rniga tegirimon toshidan foydalanila boshlandi, shuning uchun ham Qog'oz tayyorlaydigan korxonalar % Qog'oz tegirmonlari deb atala boshlandi.

Yevropada XV asrda kitob bosib kashf etilishi bilan Qog'ozga talab yanada ortib, mavjud ishlab chiqarish bu talabni qondirishga ojizlik qilardi.

XVII asrda Gollandiyada rol kashf etildi, uning ishlab chiqarish unumdorligi anchagina yuoqori edi. Rol to’siq bilan ajratilgan oval shaklidagi vanna edi. Vannaning bir qismida pichoqli baraban, uning tagida esa pichoqlardan qilingan planka joylashtirilgandi. Vannaga lattaputta solib, ustidan suv quysa baraban aylanib, suvni uzluksiz harakatta keltirib pichoqlari bilan lattani maydalab qog’oz massasini hosil qilgan. Biroq quyish ishlari qo’lda bajarilgan. Qog’oz tayyorlashda XVIII asr frantsuz Nikola Lui Rober kashf etgan samocherka — birinchi qog’oz mashinasi inqilob. Bu mashina valikka o’rnatilgan mis to’r bo’lib, qog’oz massali chan ostida to’xtovsiz aylanib turgan. Chandagi qog’oz suzib oluvchi rildirak yordamida mis turga solingan, natijada suv oqib ketib, turda tolalarning yupqa rollami qolgan. Turning gorizontal knsmining oxirida valik bo’lib, qog’oz lentaga o’ralgan. Tayyor qog’oz lenta valikdan olinib quritilgan.

XIX asrda saksoniyalik to’quvchi Keller birinchi bo’lib, qog’oz tayyorlashda eng arzon xom ashyo — yog’ochni maydalash usulini topdi. Yog’ochni maydalashda u doimo qo’llab turiladigan charx topishdan foydalandi. 1844 yilda yog’och massasini maydalaydigan mashina—defibrerni qurdi. Yog’ochdan qilingan qog’ozning lattadan qilingan qog’ozga nisbatan pishiqligi kamroq bo’lib yorug’lik ta’sirida xiralashardi. yog’och massadan tsellyulyuzani ajratishga faqat 1857 yilda ingliz ximigi F. Xautan muvaffaq bo’ldi.

U yog’och massasiga qaynoq kaustik soda eritmasi bilan ishlov berdi. Qog’oz massasi yog’och tsellyuloza va to’ldirgichlar (bur, bo’yoq moddalari, yelim)dan iboratdir. Tsellyuloza qanchalik ko’p bo’lsa, qog’ozning sifatn shuncha govori bo’lar edi.

Qog’oz ishlab chiqarish xom ashyosi qog’oz ishlab chiqarishda yogoch, poxol (somon) ip, gazlama, eski ishlatilgan qog’oz (makulatura) xom ashyo hisoblanadi.

Ip, gazlamadan asosan qog’ozning qimmatbaho va maxsus navlarini ishlab chiqarishda_ fondalaniladi. Poxoldan karton, o’ram qog’ozlari tayyorlanadi. Makulatura turli navdagi qog’ozlarni tayyorlashda yaxshi xom ashyo hisoblanadi. Poxol va asosan yog’ochdan qog’oz ishlab chiqarishning asosiy xom ashyosi bo’lgan tsellyuloza tayyorlanadi.

Qog’oz tayyorlashning texnologik jarayoni. qog’oz ishlab chiqarish murakkab texnologik jarayon bo’lib, unda turli xom ashyo va ximikatlar ishlatiladi. Tsellyuloza qog’oz kombinata turli korxonalar kompleksi bo’lib, u yogoch ombori, qog’oz fabrikasi, smola va yog’och zavodini o’z ichiga oladi. Qog’oz smola kombinatlari daryo va gullar qirgog’iga qurildi, chunki qog’oz ishlab chiqarishda suv ko’p talab qilinadi, bundan tashqari yogochni oqizish ham qulaydir. Kombinatga kelgan rulalar uzunligi 1 metr 20 sm yoki 1 metru 25 sm qilib kam qiladi, ular balans deb atalib po’stloq qiluvchi apparatlarga o’tadi. Ular chanli suvda aylanib turadi. Baraban aylanar ekan, balanslarni qobig’iga va birbiriga ishqalanishga majbur qiladi. Shu yo’sinda ular po’stdan ajraladi va po’stlar qobiqlari oralig’idan o’tib ketadi.

Tarkibida kletchatka foizi ko’p bo’lgan qoraqarag’ay tsellyuloza tayyorlashda eng yaxshi xom ashyo hisoblanadi. Balanslar maydalash mashinalarida payrariqlarga aylantiriladi, ular maxsus mashinalarda saralanib qaynatish qozoni tepasidagi bunkerga uzatitadi, bu erga pishiradigan kislota va bo’r kelib tura;: Kislota odatda oltingugurt kolchedanidan tayyorlanadi. Payraxa qozonda 7 — 10 soat davomida 135 — 150°

haroratda qaynatiladi. Shundan so'ng massa tagi to'rsimon xovuzga chikariladi, u erda suv oqimi bilan turli aralashma quykalardan tozalanadi. Shundan so'ng maxsus mashinalarda yirik zarralari ajratib olinib, suyultiriladi va hovuzlarda saqlanadi. Tsellyulozani jo'natish qulay bo'lishi uchun u presslanadi, quritiladi va listlist qilib qirqilib, upakovka qilinadi.

Balanslarning ikkinchi qismi yog'och zavodida maydalovchi mashinalar — defibralarda aylanuvchi dumaloq toshlar yordamida maydalanadi. Shundan so'ng tarkibida tola bo'lgan bo'tqasimon massa, payraxa tutkichdan utib, maydalanmagan qismlar usha erda qoladi. Markazidan qochirma navlariga ajratishda massadan yiriq maydalanmagan zarralar ajratib olinadi va yog'och massasi maxsus saqlanadigan hovuzga o'tadi, qog'ozning navi tarkibidagi tsellyuloza va yog'och massasiga bog'liq bo'ladi.

Qog'oz massasi yanada ingichkaroq tolalarga ajratish uchun maxsus apparatdan takror o'tkaziladi. Maydalash ba'zan bir sutkadan ortiq davom etadi, tola qanchalik ingichka bo'lsa, ular birbiriga shunchalik yaxshi birikadi, demak qog'ozning navi ham, sifati ham yuqori bo'ladi. Massaga turli ximiyaviy moddalar bilan ishlov beriladi, rang uchun qalin (oq loy) turli bubvchi moddalar, pishiqroq bo'lsin uchun kanifol elimi qushiladi. har bir qog'oz navi uz tayyorlanish retseptiga egadir. Tayyor qog'oz massasi quvurlar orqali aralashtiriladigan qovuzga o'tadi, yulyulakay u kerakli darajada amalga oshiriladi: massa yana maydalanadi va kerakli moddalar qushiladi hamda u qog'oz (qiluvchi mashinaga qtkaziladi. Bunday mashina eni 6—8 m, uzunligi 100—120 m bo'lgan kattagina konveyerdir, bunday mashinalar sutkasiga 400 t Qog'oz chiqaradi. Juda mayda teshikli oxiri yo'q metall tur valiklarda minutiga 5SO m tezlikda harakat qiladi. Qog'oz massa metall turga uzluksiz tushib, u bilan birga harakatda bo'ladi. Tur ustida apparatlarning butun bir sistemasi bo'lib, ular siqilgan havo oqimi yordamida qog'oz massasidagi suvni siqib oladi. Nam qog'oz massasi sukno ustiga o'tadi. Sukno qog'ozpi ikki valik opasiga olib kiradi. Bir qator presslardan so'ng qog'oz tolasi qaynoq vdituvchi silindrlarga yopishib o'tadi. qog'ozni sillig'lash uchun u sovuq mis silindrlari va cho'yan vallar orqali o'tkazilib polga tushiriladi, mashinaning bu qismi glezer deyiladi. So'nggi bosqich qog'ozni rulonlarga o'rash va iste'molchilarga jo'natishdir.

Qog'oz va kartonning sanoat va turmushda qo'llanishi. Qog'ozga kitob va gazetalar bosiladi, undan yozishda foydalaniladi. Hozirgi kunda qog'ozning xilmaxil navlari ishlab chiqilib, undan faqat turmushda emas, balki sanoatda ham foydalanilmoqda.

Fan va madaniyat beqiyos rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan qog'ozning yarmidan ko'prog'i bosiladigan gazeta va yoziladigan qog'ozlardir. Qog'ozlar turli tovarlarni (oziq-ovqat maxsulotlari, yashiklar, upakovka qoplari) upakovka qilish va o'rash uchun ham sarflanmoqda.

Texnikada qog'ozning maxsus navi va kartondan keng foydalaniladi. Telegraf lentasi, fotosurat qog'oz, zlektr o'tkazmaydigan qog'oz shular jumlasidandir. Qog'oz massasi va asbest aralashmasidan asbestli o'tga chidamli karton, gips bilan aralashmasidan esa quruk shtukaturka listlari tayyorlanadi.

Oddiy qog'oz suvda namlanadi va oson yirtiladi, undan tayyorlangan fibra — juda pishiq va engil mateial bo'lib, undan g'iloflar, chamadonlar va shu kabilarni

qilishda foydalaniladi. Qog'oz massasidan turli o'yinchoqlar, xonalar bezaklari, maxsus modda singdirilgan, nam o'tkazmaydigan qog'ozdan sut maqsulotlari uchun tara, muzqaymoq stakanlarini tayyorlashda foydalaniladi.

Har yili qog'ozning eng yangi navlari yaratilmoqda. Maxsus elektroximik qog'ozning kashf etilishi tufayli oyning orqa tomonini suratga tushirishga muvaffaq bo'lindi.

Qog'oz va kartonning klassifikatsiyasi. Qog'oz va karton faqat poligrafiya sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo'llaniladi. Tsellyuloza qog'oz sanoati qog'oz va kartonning ikki yuzga yaqin turini ishlab chiqaradi. Yuqorida aytib o'tilganidek texnikada qog'ozning telegraf va magnitlangan magnitofon lentalari, foto sezgir qog'ozlar, elektr o'tkazmaydigan qog'ozlar, nam o'tkazmaydigan fibra va shu kabi xilma xil turlaridan keng foydalaniladi. qog'ozdan qurilishda ham keng foydalaniladi. Masalan, qog'ozdan g'isht, to'siqlar uchun plitalar tayyorlanadi.

Qog'ozga kitoblar, gazetalar bosilishini, unga ruchka, qalam bilan yozilishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. Shuning uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi bolalarning ko'proq e'tiborini bolalar qog'ozning turmushda tez-tez uchratadigan yoki qo'l mehnati darslaridagi foydalanadigan turlariga jalb qilishi lozim.

1. **Gazeta qog'oz-** eng arzon va ko'p tarqalgan qog'oz turidir. Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni va yelimni yaxshi singdiradi.
2. **Yozuv qog'oz**— satxi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni konstruktsiyalash, muqovalash, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulay.
3. **Chizmachilik qog'oz**— eng pishiq va qalin qog'oz. Lattadan tayyorlanadi, uning oliy navi qo'lda qo'yiladi. Undan karnaval maskalari, lito va shu kabilarni yasashda foydalaniladi.
4. **Rasm Qog'oz**— 2 nomerli bo'lib, to'liq tsellyulozadan tayyorlanadi, oliy naviga 25 % latta qo'shiladi. Qo'l mehnati darslarida, shuningdek chizmalar chizishda foydalaniladi.
5. **Rangli va jiloli qog'oz**mehnat darslarida keng qo'llanib, applikatsiya, mukovalash ishlarida foydalaniladi. Turli naborlarda chiqariladi.
6. **Elimlangan qog'oz**—jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga elim surtilgan qo'l mehnati darslari uchun juda qulay.
7. **Rangli jild Qog'oz**— turli ranglarda buyalgan, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rnini bosib, qo'l mehnat darslarida keng qo'llaniladi.
8. **Shagren naqshdor Qog'oz-**muqovasozlikda va tayer narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o'yinchotqlarini yasashda foydalaniladi.
9. **Gul qog'ozning rangi va guli** turlicha bo'lib muqovalash, narsalarping ustidan elimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.
10. **Kalka Qog'ozga** -shaffoflik berish uchun mum va moy singdiriladi. Yaxshi, sifatli kalka qog'ozning xatto tozalangai joyida ham tush yoyilib ketmasligi kerak Kalka qog'oz teatrlarda archa o'yinchoqlari yasash, saxnani bezash, rasmlarni qayta tushirish ishlarida ishlatiladi.
11. **Millimetrli qog'oz** — satxi bosma to'r shaklida tayyorlanadi.
12. **Filtr qog'oz**— elimlanmagan qog'ozdir.

13. **Karton qog'oz deb-** 1 kv. m 250 grammdan ortiq bo'lgan qog'ozga aytiladi.
14. **Oq karton**— uni qirqish oson, o'zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton elimni ko'p shimadi, ko'pincha elimdan shishadi ham. Unda mayda narsalarni muqovalashda foidalanish mumkin.
15. **Sariq karton** -oq kartondan ko'ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi kirkiladi. Elimdan shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.
16. **Kul rang karton** — oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Pichoq karton massasidagi qumdan tez o'tmaslashadi. Kartonning bu navidan o'ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.
17. **Rangli karton**— yupqa egiluvchan, satqi turli rangda jilo berilgan, ishlov berish oson va ko'rinishi chiroyli. Undan xajmi kichik narsalar, papkalar, mukovalar tayyorlash ma'kul. Uning ustidan boshqa narsa yopishtirishga hojat yo'q.
18. **Qog'ozni standartlash.** Sanoatda standartlash katta ahamiyatga egadir. Standart deganda maxsulotning ma'lum sifatini, u yoki bu buyumning ma'lum o'lchamlari belgilanishini tushuniladi. Qog'oz sanoatida ham

**Qog'ozning o'lchami va navlari standartlashgandir.** Yozuv qog'oz sotuvga 250 va 500 varaqdan qilib upakovka qilingan xolda chiqariladi, u katak yoki bir chiziq qilib chizilgan yoki umuman chizilmagan bo'ladi. Bir chiziq yoki katak qilib chizilgan qog'ozlardan ma'lum o'lchamga va ma'lum varaqqa ega bo'lgan daftarlar chiqariladi.

Yozuv qog'oz bir-biridan tarkibidagi qog'oz massasi, qalinligi, og'irligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi to'rt navda chiqariladi.

Yozuv qog'ozning oliy navi 0, qolganlari muvofiq tarzda 1, 2, 3, nomerlariga egadir.

Qog'oz va kartonning asosiy xususiyatlari. Quruq holdagi qog'oz nisbatan pishiq materialdir. Qog'oz naviga ko'ra suvda iviydi, yumshoqlashadi, pishiqligi yuqoladi. Qog'oz yaxshi taxlanadi, agarda buklangan joy yaxshilab silliqlangan bo'lsa, qog'oz shu shaklni saqlab, oldingi holiga qiyinlik bilan qaytadi, bunda buklanishdan xosil bo'lgan chiziqlar saqlanib qoladi. Suv, kleyster, suyuq yelimga namlanganda u chuziladi, Quritilganda kirishadi, qog'oz uzunasiga qaraganda ko'ndalangiga ko'proq cho'ziladi.

Qog'oz tayyorlashda ko'pgina miqdordagi tolalar uzunasiga joylashadi, shuning uchun ham qog'oz ko'proq kengayadi ko'ndalang yo'nalishda o'raladi.

Qog'oz oson tortiladi, eniga nisbatan bo'yiga yaxshilab buklangan joydan osonroq yirtiladi. Qog'oz yaxshi yonadi. Uni faqat elim bilan emas, balki kleyster bilan ham yopishtirish mumkin. Qog'ozni pichoq qaychida osonlik bilan qirqish mumkin.

**Qog'oz silliqligiga maxsus ishlov berish** — qog'oz massasini qaynoq silindrsimon vallar orqali o'tkazish yoki uni yelim va lakli buyoq bilan koplash bilan erishiladi.

Qog'ozning ayrim navlari siyox bilan yozishga yaroqli, bo'yoq uchun yaroqsiz bo'ladi.

Qog'ozning bu xususiyatlariga unga maxsus kanifol jelatin, yelim, glinozem berish orqali erishiladi. Yozuv qog'ozga elim singdirilgan bo'lib, siyoh yoyilib ketmaydi, gazeta qog'oi esa bosmaxona buyog'ining chuqur botmasligiga moslangan bo'lib, siyox unda yoyilib ketadi. Qog'ozning maxsus ishlov berilgan navlaridan boshqalari havo va suvni o'tkazadi.

Ushlaganda qattiq, egilmaydigan ko’ringan karton nam tekkanda shishadi, yumshab yoki bo’shashib, chidamsiz bo’lib qoladi. Karton naviga ko’ra egiluvchan va sinuvchan bo’ladi.

Bir tomoniga qog’oz yopishtirilgan karton qog’oz yopishtirilgan tomoniga qayishadi. Karton uzunasiga xam, ko’ndalangiga ham bir xil kesiladi. Uni yirtish qiyin. Karton yonadi. Ammo qiyinlik bilan maxsus eritma singdirilgan kartonlar yonmaydi.

Qog’ozni bo’yash usullari. Ko’pincha qo’l mehnati darslarida ishni bajarish uchun kerak bo’lgan rangdagi qog’oz topilmay qoladi. Tayyorlanadigan narsaning chiroyli chiqishi esa tanlangan rangga bog’liqdir. Shuning uchun o’qituvchi qog’ozni bo’yash malakasini mukammal egallagan bo’lishi va uni o’quvchilariga o’rgatishi lozim.

Qog’ozni bo’yashda quyidagi bo’yoq va moslamalardan foydalaniladi.

**Akvarel bo’yoqlar** — suvda eritiladi, tyubiklardagn akvarel bo’yoq lardan foydalanish juda qulay.

Anilin bo’yoqlar bilan gazlama, qog’oz, karton yaxshi bo’yaladi. Bu bo’yoq poroshok holda sotilib issiq suvda oson eriydi. Moybo’yoq larning tayyor aralashtirilganini olish lozim. Quyuq pastasimonidan foydalannsh mumkin, ular alifmoy bilan suyultiriladi.

Quyuq bo’yoqlarning eng yaxshilari toza, ochiq rangdagilari badiiy bo’yoq lar deyilib tyubiklarda sotiladi. Bo’yoq tanlashda faqat ularning rangigagina emas, balki xususiyatlariga ham e’tibor berish kerak.

**Qizil bo’yoqlardan,**— temirli surikni, belilani, ruxlisini, sariq rangdan, ruxli kronni, yashilini, xrom oksidini, ko’kish ultramarinni olish kerak.

Moy bo’yoqlar sekin quriydi, ularning qurishini tezlatish uchun 100 g bo’yoq qa 2 g atrofida maxsus sikativ eritmasi qo’yiladi. Agarda bo’yalgan sath xaddan tashqari yaltiroq bo’lmasligi talab qilinsa, bo’yoq qa ozgina skipidar aralashtiriladi. Moybo’yoq lar og’zi zich yopiladigan tunuka bankalarda saqlanadi. Moybo’yoq qurib qolmasligi uchun uning ustiga alifmoy yoki suv kuyib qo’yiladi.

Yelimli bo’yoq yoki guashda karton yaxshi bo’yaladi, biroq bu bo’yoqlar quyosh nurida tezda ayniydi.

Papiros qog’oz va oddiy yozuv qog’ozni bo’yash oson. Qog’ozni bo’yash uchun tog’orachada anilin buyog’i kerakli rangda va ottenkada eritiladi, bunda bo’yoq quriganda rangi ochiqroq bo’lishini hisobga olish kerak. Tayyorlangan bo’yoq va qog’ozni bir chetidan ushlab turib botirib olinadi, so’ngra uni qisqichlar yordamida quritish uchun osib qo’yiladi, u bir oz qurigach, chap tomonidan iliq dazmol bosiladi.

Qog’ozni bo’yashning ikkinchi usulida qog’ozga suyuqlashtirilib bo’yoq aralashtirilgan sirach suriladi. Sirach yuqorida aytib o’tilgan retsept bo’yicha tayyorlanib, unga suvda eritilgan guash (akvarel, anilin) buyog’i qo’shilib yaxshilab aralashtiriladi va uni qog’ozning ustiga muyqalam bilan suriladi. qog’oz gazeta qoplangan taxtaga knopkalar bilan mustahkamlangan bo’lib, uni avval o’rtasidan bir chetiga, so’ngra ikkinchi chetiga qarab bo’yaladi. Rangli sirach koplangan qog’ozga turli rasmlarni tushirish mumkin. Bo’yalgan qog’oz qurigach unga ochiq spirt laki beriladi yoki mumlangan sukno bilan sayqal beriladi.

Qog’ozni «sachratib» bo’yash ham mumkin. Buning uchun akvarel bo’yoq suyultiriladi va unga tish cho’tkasini botirib olpnadi. qog’ozni ustida chap qo’lda eski taroq yoki mayda metall turni ushlab turib unnng ustidan buyoq botirnlgan tish

cho’tkasi yurgiziladi, Natijada qog’ozning ustini bo’yoq  mayda xol tarzida qoplaydi. Bo’yashni turlicha amalga oshirish mumkin, ya’ni avval bir rangni, keyin ikkinchi rangni sachratish mumkin. Qog’ozning ustiga siluet quyib, bo’yoq  sachratilsa, siluet olinganda Qog’oz ustida oppoq rasm holati, agarda trafaret quyilsa ok qog’oza rangli rasm paydo bo’ladi. Bo’yashning bu usulida pulverizatordan foydalannsh mumkin.

Moybo’yoq  bilan bo’yash. Moybo’yoq  bilan bo’yash bir tonli va marmarsimon bo’lishi mumkin. Har ikkala xolatda xam bo’yoq  bir xil tayyorlanadi. Moybo’yoq kerosin bilan qaymoq darajasigacha suyultirilib, bo’yash amalga oshiriladigan idishdagi suvga qo’yiladi. Bir tonli bo’yashda bir xil rangdagi bo’yoq dan foydalaniladi. Suv ustiga quyilgan bo’yoq  tayoqcha bilan ohista aralashtiriladi, bunda bo’yoq  suv ustida yupqa rangli qatlam (plyonka) xosil qilishi kerak qog’oz ana shu qatlam ustiga ohista quyib olinadi. Qog’oz quritilgach dazmollanib, so’ngra unga rangsiz spirtli lak surtiladi. Agar qog’oz marmarsimon rangga bo’yaladigan bo’lsa, idishdagi suvga bir necha xil bo’yoq  solinib, oxista aralashtiriladi.

Shaffof rangdagi, qog’ozni tayyorlash uchun oddiy yozuv qog’ozning xar ikkala tomonini kerosin (o’simlik moyi yoki boshqa yog’lar)ga botirib undagi ortiqcha yoglar quruq tampon bilan artib olinadi. Qog’oz moyni ko’p shimib olmasligi uchun uni gazeta yoki o’rashga mo’ljallangan qog’oz o’rtasiga quyib uning ustidan iliq dazmol yuritiladi. Bunday qog’oz qo’l mehnati darslarida kalkaning o’rnini bemalol bosa oladi.

Murakkab o’yinchoqlarni yasashda qog’ozga tez yonishdan saqlovchi modda singdiriladi.

Suvga chidamli qog’ozni eritilgan issiq mum yoki mumning parafin bilan aralashmasini singdirish orqali olinadi. Maktab praktikasida suv tegirmonining parraklari, qayiqchalarga xuddi shunday ishlov beriladi.

«Tilla» va kumush qog’ozlarni tayyorlash uchun alyumiili va tillarang bronza kukunlaridan foydalaniladi. Erituvchi tinktura odatda kukun bilan birga sotiladi. Metall kukunlarini rangsiz spirt lakida ham aralashtirish mumkin. Lak bo’yash kerak bo’lsa, metall kukuni kraxmal sarachda yoki dekstrinli elimda eritilib qog’ozni bo’yagandek bo’yaladi. Biroq bu bo’yoq  unchalik pishnk chiqmaydi.

Qog’ozni bo’yashda, bo’yalayotgan qog’oz tagiga gazetani bir necha qavat qilib solish kerak. Ular knopka bilan stolga maxkamlab qo’yiladi. Bo’yalgan qog’ozga mum yoki lak bilan sayqal beriladi. Mehnat ta’limi vazifalarn haqida gapirilganda, o’quvchilarda mehnatsevarlik, ma’suliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik xissiii tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma’naviy ta’minotining vositasi, jamiyat tarakkiyotining eng muxim omilidir. Bolalarni aqliy o’stirishda ham mehnat ta’limining roli ko’p qirralidir. Mehnat o’quvchilarning bilim olishiga intilishlarini ko’zg’aluvchi vositagina emas, balki unnng manbai xamdir. Mehnat ta’limi jarayonida o’quvchilarni aqliy o’stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim axamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat xam aqliy o’sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mehnat ta’limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to’gri

motivlari tarbiyalanadi, shaxsning xar bir ongli mehnatkash uchun zarur bo’lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o’z mehnati uchun shaxsiy ma’suliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

**Dasturlashtirilgan topshiriqlar**

1. Qog’oz turlari va xususiyatlari
2. Karton turlari va xususiyatlari
3. Qog’oz turlarini tahlil qilish.
4. Karton turlarini tahlil qilish
5. Qog’ozni buklash usullari.
6. Kartonga ishlov berish usullari
7. Qog’ozdan buklash asosida maketlar yasash
8. Qog’ozdan applikatsiyalar yasash
9. Kartondan ko’rgazmali qurollari yasash
10.Kartondanharakatli uyinchoqlar yasash.

**Toifalash jadvali**

| **Toifalar** | |
|---|---|
| **Qog’oz bilan ishlash** | **Karton bilan ishlash** |
| | |

**Test savollari**

**1.Mehnat ta'limi darslarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?**
A) Mehnatga muhabbat tuyg’usini shakllantirish.
B)Mehnat malakasi va malakasini hosil qilish
S) Mehnatga muhabbat, sanoat, qishloq xo’jalligi, transport, xizmat ko’rsatish sohalari bilan tanishtirish, kasb tanlash va hunar olishga undash
D)Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash.

**2. O’quvchilarni bo’lajak amaliy faoliyatiga tayyorlashda nimalar katta rol o’ynaydi?**
A) Mehnat ko’nikmalari
B)Mehnat malakalari va ko’nikmalari
S)Mehnat malakalari
D)Tarbiya

**3. Mehnat darslarida qanaqqa platsmassa turlaridan foydalaniladi?**
A) Ebolit, tektsomik, kapron, paralon
B)Organik shisha, kapron, paralon
S)Paralon, penaplats
D)Organik shisha, paralon, penamit, ebolit, kapron, tektsomik

**4. Mehnat o’qituvchisining vazifasi?**
A) Loyihalash va modellashni o’rgatish
B) O’quvchilarga yoshligidan boshlab, mehnatning yaxshi tomonlarini sindirish
S)O’quvchilarni jamoada ishlashga o’rgatish
D)Mehnat fanini o’rganishni ahamiyati

**5. Applikatsiya qanday paydo bo’lgan va nima uchun ishlatiladi?**
A) Applikatsiya 2000 yil muqaddam paydo bo’lib, narsalar bezatishda ishlatiladi
B) Applikatsiya 2000 yil muqaddam paydo bo’lgan kiyim bosh bezatilgan
S) Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko’chmanchi xalqlarda paydo bo’lgan va kiyim bosh turar joylar bezatilgan
D)Applikatsiya turar joylar bezatilgan kachon paydo bo’lgani noma'lum

**6. Mehnat darslarida qaysi daraxtlardan foydalaniladi?**
A) Qarag’ay, qorakarag’ay, qayin, jo’ka, tog’terak, tol
B) Har qaysi yog’ochdan foydalaniladi
S) Qarag’ay, qayin, archa, tol
D)Tol, tog’terak, jo’ka, archa

**7. O’quvchilarda mehnat ta'lim darslariga qiziqishni uyg’otish uchun nima qilinadi?**
A) Fan yuzasidan suhbat o’tkaziladi
B) Har bir ish yuzasidan suhbat o’tkaziladi
S) Ish turi yuzasidan suhbat va ekuskurtsiyalar o’tkaziladi
D)Har bir ish turi yuzasidan suhbat o’tkaziladi

**8. «Mohir qo’llar» to’garagining vazifasi**
A) Mehnat kishilarga muhabbatni singdirish, politexnik ta'lim berish estetik didni o’stirish, badiiy va ijodiy kobilyatlarini rivojlantirish
B) Estetik didni o’stirish, mehnat kishilarga muhabbatni singdirish
S) Mehnat kishilarga muhabbatni singdirish, estetik didlarini o’stirish
D)Politexnik ta'lim berish, estetik did va ijodiy qobiliyatini o’stirish

**9. Mehnatga ahoqiy tayyorlash nimalarni o’rgatishdan iborat?**
A) Ijodiy tashabbusni, do’stona o’zaro yordamni, tashkilotchilik qobiliyatini namoyish qilish, o’quvchilarni jamoa bo’lib ishlashga
B) O’quvchilarni ishlashga va o’zaro yordamga
S) Do’stona o’zaro yordam, tashkilotchilik qobiliyatni namoyish qilish o’quvchilarda jamoada ishlashga
D) Tashkilotchilik qobiliyatini o’stirishga

**10. Ta'lim jarayonida o'quvchilar qog'oz kartonni qanaqa xususiyati bilan tanishadi?**

A) Siyohni shilishi xarakteri
B) G'adir-budirligi, razmeri, silliqligi
S) Turlari, razmeri, rangi satxning harakteri, silliq g'adir-budirligi siyohni shilishi
D)Razmeri, rangi, g'adir – budirligi

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Qog'oz va karton turlarini o'rganing.
2. Qog'oz va karton turlarini yozing va tahlil qiling

## GLOSSARIY

**Gazeta qog'oz**- eng arzon va ko'p tarqalgan qog'oz turidir. Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni va yelimni yaxshi singdiradi.

**Yozuv qog'oz**— satxi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni konstruktsiyalash, muqovalash, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulay.

**Chizmachilik qog'oz**— eng pishiq va qalin qog'oz. Lattadan tayyorlanadi, uning oliy navi qo'lda qo'yiladi. Undan karnaval maskalari, lito va shu kabilarni yasashda foydalaniladi.

**Rasm Qog'oz**— 2 nomerli bo'lib, to'liq tsellyulozadan tayyorlanadi, oliy naviga 25 % latta qo'shiladi. Qo'l mehnati darslarida, shuningdek chizmalar chizishda foydalaniladi.

**Rangli va jiloli qog'oz**mehnat darslarida keng qo'llanib, applikatsiya, mukovalash ishlarida foydalaniladi. Turli naborlarda chiqariladi.

**Elimlangan qog'oz**—jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga elim surtilgan qo'l mehnati darslari uchun juda qulay.

**Rangli jild Qog'oz**— turli ranglarda buyalgan, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rnini bosib, qo'l mehnat darslarida keng qo'llaniladi.

**Shagren naqshdor Qog'oz**-muqovasozlikda va tayer narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o'yinchotqlarini yasashda foydalaniladi.

**Akvarel bo'yoqlar** — suvda eritiladi, tyubiklardagn akvarel bo'yoq lardan foydalanish juda qulay.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P"Mehnat va uni o`qitish metodikasi" O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.
2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil
3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil

## 19-Mavzu: Turli xil va tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

### Reja

1.Turli xil va tabiiy materiallar haqida ma'lumot berish.
2.Turli xil tabiiy materiallarni to'plash
3.Tabiiy materiallarni ishga tayyorlash
4.Turli tabiiy materiallar bilan ishlash texnologiyasi

**Tayanch iboralar:**gerbariy, press, metall, qotish, qora metall, sim, organik, paralon, penoplas, linoleum, teksolit, ebonit, fanera, plastilin, mum.

**O'quv faoliyatining natijasi:**

***Talabalar bilishi kerak***

1.Turlitabiiymateriallarturlari, xususiyatlarivaishlovberishusullarihaqidatushunchalaregabo'lish
2.Turlitabiiymateriallarnito'plashvaularniishgatayyorlashhaqidao'rganish
3.Mehnatdarslaridaishjoyinito'g'ritashkilqilishtalabalarinio'rganish
4.Amaliyishqurolturlarivaulardanfoydalanishqoidalaribilantanishish
5.Sanitariya-gigieniktalablarivato'g'rio'tirishqoidalarigarioyaqilishgao'rganish

### Blits savollari

1. Turli xil materiallar qanday materiallar?
2. Turli materiallarni to'plash va ishga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
3. Tabiiy materiallar qaerda to'planadi?
4. Barglarni  quritish usullari qanday?
5. Turli materiallar bilan ishlashning ahamiyati?

### Blits harita

| № | Talabaning javobi | To'g'ri javob | Noto'g'ri javob | Javoblar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |

Jami:

10-9 ta – "0,5", 8-7 ta – "0,4", 6 ta – "0,3", 5 ta – "0,25", 4 ta – "0,2".

Talaba ______________________________ _______ball

O'zbekistontabiiyresurslar,foydaliqazilmalar, metallvaqotishmalar, plastmassalar, yog'ochlar va o'simliklarga boy o'lkadir. Respublikamizningbutabiiyboyliklarisanoatda, turmushdafoydalanadiganxomashyobo'lishibilanbirqatordamehnatdarslaridabajariladiganishlaruchunkeraklimaterialbo'libhamxizmatqiladi.

O’quvchilarniilkyoshligidanboshlabbolalardaonatabiatgakizikishvamuxabbatni, undagiguzalliklarnikurabilishnitarbiyalashkrak. Tabiiymateriallarbilanishlashularnitabiatnikuzatishgamajburkiladi. Kuzatishlaresabadiiyijodiyqobiliyatlarni, konstruktorlikgoyasini, tushunchalarninganikliginiuygotadi.

**Turlitabiiymateriallarbilanishlash, turlichaishlovberilishini, turliasboblardanfoydalanishnitalabqiladivaularniishlatish bilim, ko’nikma va malakalarni beradi.**

Turli tabiiy materiallarni tuplash ukituvchi kuygan maqsadga boglik buladi. O’quvchilar kurib chikilgan va batafsil muhokama qilingan yoki uzlari uylab topgan tasvir uchun material tuplaydilar va aksincha, avval kandaydir materialni to’plab, keyin kanday ish bajarishni aniklashlari kerak.

Tabiiy materiallarni o’quvchilar dastlab o’qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to’playdilar. Tabiiy materillarni to’lash jarayonida o’quvchilar atrofdagi o’simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallni qachon va qanday to’plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo’riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish, uni asrash masalalariga alohida e’tibor berish har bir o’quvchining burchidir.

Mehnat darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari- qovun, tarvuz, qovoq urug’lari, mevalar – olcha, o’rik, shaftoli danaklari va shu kabilar: baliq tangalari va qanotlari, jo’xori va makkajo’xori sutalari, paxta chanog’i, yong’oq po’sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Tabiiy materillarni tuplayotgan xar bir o’quvchi tabiiy materiallarni tartibli yigish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg tuplash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini kupollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni uylamasdan tuplash tabiatga nisbatan vaxshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni kul bilan sindirib bulmaydi, aks xolda poyasi zararlanishi mumkin.

O’simliklarni tuplashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bulishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi.

Kuritib olishga mo’ljallangan usimliklar xar kanday namlikdan xoli bulishi kerak, aks xolda usimlik kuritilganda unda doglarning izi koladi. Kuritilayotgan usimlikning tabiiy rangini asrab kolishning eng muhim sharti, ularni shamol utib turadigan joyda, elvizakda, kuyosh nurida tez kuritib olishdir. Usimliklarni kuritish 3 sutkadan oshmasligi kerak.

**Gerbariy ramkalarida kuritish.** Gerbariy ramkalarida kuritilgan usimliklarning kupchiligi uzining tabiiy rangini saklab koladi. Bunda usimlik yumshok qog’oz yoki gazeta orasiga solib kuyiladi.Xar bir varak qog’oz va usimlik urtasiga yana bir necha kavat qog’oz yoki gazta kuyiladi, chunki kuritilayotgan usimlik uzidan namlik chikaradi. Shundan sung papka ikkita tursimon ramka urtasiga kuyilib, ochik xavoga kuyiladi. Agarda xavo xarorati kechkurun va kechasi juda pasayadigan bulsa, kuritilayotgan usimlik issik va kuruk joyga olib kiriladi.

**Pressda kuritish.** Orasiga usimlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi urniga ikkita faner listlar urtasiga joylanib, ogir narsa bostirib kuyiladi. Ogrilik pressga kancha usimlik joylashtirilganiga boglik buladi. Mayda nozik usimliklar kam ogirlikni va kuritish uchun kamrok vaqtni talab kiladi. 2-3 soatdan sung qog'oz almashtiriladi. Kuritish shu usulda davom ettiriladi.

**Issik dazmol bilan kuritish.** Issik dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar kuritiladi. Kavat-kavat gazeta yoki yumshok qog'oz orasiga usimlikni kuyib, ustidan dazmol yurgiziladi. Sungra ustki kavatidagi gazetani olib, kuritilayotgan usimlik shamollatiladi va kuruk joyga suriladi, sungra gazeta yopib yana dazmollandi. Usimlik 2-3 minutda kuriydi va u uzining tabiiy rangini yukotmaydi. Agarda kuritilgan usimlik kutarilganda uzining tanasini ushlab tursa, u yaxshi kuritilgan xisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortikcha kuritib yuborilgan xisoblanadi.

**Metall va qotishmalar.** Metall suzi grekcha erdan kazib olaman degan mazmunda bo'lib, u dastlab kon, kazilma, degan ma'nolarni anglatadi. Kadimgi dunyo xalklari fakat oltin, kumush, mis, kalay, kurgoshin, temir, simob kabi 7 ta metallnigana bilishgan.

Mehnat darslarida metall va qotishmalardan ham foydalanadilar. Metallar o'zlarining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, egiluvchanligi, issiqlik va elektr o'tkazishi, suvga bardoshliligi, eruvchanligi va cho'kuvchanlik xususiyatlariga ega. O'quvchilar rangli metall va qora metall turlarini bilishlari kerak.

**Qora metall** – temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo'ladi. Bularga: Po'lat, cho'yan, temir, tunuka va folga kiradi.

**Rangli metallga** – mis, alyumin, qo'rg'oshin, jez, qalay va boshqa metallar va ularning qotishmalari kiradi.

Metall bilan ishlanadigan asboblar: Taxta qilingan metallni qirqishda maxsus tunuka qaychilari kerak bo'ladi. Simni o'tkir ombir bilan folgani qaychi bilan qirqiladi. Metallarni mustahkamlovchi va boshqa ishlarda bolg'a, egov kabi asboblar qo'llaniladi. Metallga ishlov berishda xavfsizligi texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur

**Sim bilan ishlash**. Turli xil narsalarni yasashda xilma-xil simlardan foydalanish mumkin. Sim to'qish va o'rib olish uchun yaroqlidir. Qattiq po'lat yoki alyumin simdan texnik modellashda bir qator detallarni yasashda foydalaniladi. Bu simdan arava, avtomobil o'qlari, suv parragi, o'yinchoqlar va shu kabilarni tayyorlashda foydalaniladi. Ishlab chiqarilayotgan simlar diametri 0,005 dan 17mm gacha bo'ladi. U asosan dumoloq kesimli bo'ladi, Biroq kvadrat, olti qirrali, trapetsiyasimon yoki oval shaklidagi simlar ham bo'ladi. Simlar turli maqsadlarda: elektr, radio, telefon simlari, prujinalar, mixlar, eektrodlar, ingichka parma, musiqa asboblari uchun torlar yasash va shu kabilardan foydalaniladi.

**Plastmassalar.** Plastmassalar su'niy olinadigan modda bo'lib, sanoatimiz plastmassadan turli predmetlarni va kapron, neylon, organik oyna, paralon, polietilen va shu kabi xilma-xil to'qimalarni ishlab chiqaradi. Plastmassalar juda engil va shu bilan birga bukiluvchan va elastikdir. Ayrim plastmassalar o'ta mustahkam bo'lib issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi, kislotalarga bordoshlidir. Plastmassaga ishlov berishda deyarli chiqindi bo'lmaydi. Mehnat ta'limi amaliy mashhulotlarida topilishi

oson bo'lgan plastmassalardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalaniladi. Bular: organik shisha, paralon, penoplast, linoleum, ebonit, kapron, tekstolitdir

**Organik shisha -** Organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan su'niy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va elimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

**Paralon –** Su'niy yo'l bilan olinadigan material bo'lib, g'ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda engil, yaxshi bo'yaladi, suv ta'sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina materillarga yopishtirish mumkin.

**Penoplast -** Anchagina pishiq, juda engil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

**Linoleum –** Qurilishda keng qo'llaniladi. Bu turli smolalar, alifmoy, maydalangan po'kak, turli bo'yovchilar va boshqa materiallar aralashmasidan olingan su'niy materialdir. Linoleumning qalinligi 2,5 mmdan 5mmgacha bo'ladi.

**Teksolit –** ko'p qavatli gazlamadan katta bosimda presslanib tayyorlanadigan su'niy plastmassa juda pishiq xususiyatga ega. Undan shesteryonka, roliklar, podshipniklar uchun vkladishlar tayyorlanadi.

**Ebonit –** maxsus usulda ishlov berilgan rezina, Ebonitdan har xil turdagi elektr asboblari tayyorlanadi, u sinuvchan, shunung uchun ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

**Yog'och –** eng ko'p tarqalgan materil bo'lib, o'quvchilar mashg'ulotlarda ko'p tarqalgan daraxt turlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

**Qarag'ay -** ko'p tarqalgan ishlov berish oson daraxtdir. U unchalik qattiq emas, ammo pishiq, yorish, arralash oson, tolalari bo'ylab randalanadi.

**Qoraqarag'ay –** yaxshi ishlanadi, uning yog'ochi oq rang ba'zan sarg'ish bo'ladi. Qoraqarag'ay tuzilishiga ko'ra qarag'aydan yumshoq va engil. Biroq qoraqarag'ayda butoqlar ko'p quriganda yorilib ketadi.

**Qayin –** Qarag'ayga nisbatan pishiqroq va og'irroq, biroq oson arralanadi va randalanadi, qayin yoqimli qizg'ish tovlanuvchan oq-sariq rangda bo'ladi.

**Eman –** yog'ochi qattiq, u pishiq va zich hamda og'ir, chiroyli jigar rangga ega.

**Toqterak –** asosan mayda buyumlar yasashda foydalaniladi. Yog'ochi yumshoq anchagina engil.

**Jo'ka –** yog'ochi yumshoq, aralash oson, pichoq bilan oson ishlanadi, darz ketmaydi. Jo'kani yorish qiyin. Qarag'ay va qoraqarag'aydan engil sarg'ish oq rangda.

**Fanera –** Yog'ochdan shponlar qilinadi, fanerani mana shu shponlar – yog'ochning payraha qilingan yupqaqatlamlari elimlab yasaladi.

**Mozaika** - buning uchun yupqa yog'och plastinkalardan tasvir yig'iladi va keyin ularni asosga elimlab, ustidan lak yoki politra beriladi.

**Loy -** Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko'rish kerak.Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko'p qum bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo'yib, 5-6 soat saqlanadi. So'ngra suvi to'kib, qo'lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

**Plastilin –** narsalar yasashda qo'llaniladigan materialdir. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo'lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor.

**Birinchi variant** – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

**Ikkinchi variant** – quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmadigan quyuq massa hosil bo'lgancha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasini qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

**Uchunchi variant -** 1 qism to'prog'iga 1G'5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga etguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi.

**Mum –** Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan ham foydalaniladi. Mum tabiiy va su'niy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qo'lay, u qo'rimaydi, suv bilan namlashni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasalgan narsalar uzoq saqlanadi.

## Quritish usullari

**1.Gerbariyramkalarida kuritish.**

**2.Pressdaqurìtish.**

**3.Issiqdazmolbilanquritish.**.

### Umumlashtiruvchi savollar

1. Qanday daraxt barglarini bilasiz?
2. Daraxt barglariningt xususiyatlari bir xilmi?
3. Mashg'ulotga kerakli materiallar qanday joylashtiriladi?
4. Qanday asboblar bilan ishlaganda texnika xafvsizligi qoidalaridan foydalaniladi?
5. Turli materiallar bilan ishlashning maqsadi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Tabiiy materiallarni bilan ishlash usullarini o'rganing.
2. Turli xil materiallarning xususiyatlarini tahlil qiling.

### GLOSSARIY

**Qora metall** – temirning uglerod bilan qotishmasi va ozroq miqdordagi kremniy, marganets, fosfor, oltingugurt va boshqa elementlar aralashmasidan iborat bo'ladi. Bularga: Po'lat, cho'yan, temir, tunuka va folga kiradi.

**Rangli metallga** – mis, alyumin, qo'rg'oshin, jez, qalay va boshqa metallar va ularning qotishmalari kiradi.

**Organik shisha -** organik shisha oddiy shisha singari shaffof, ammo sinmaydigan su'niy plastmassadir. Organik shishani aralash, egish va elimlash mumkin. U turli ranglarga bo'yaladi.

**Paralon –** Su'niy yo'l bilan olinadigan material bo'lib, g'ovvak tuzilishga ega, usti yumshoq, juda engil, yaxshi bo'yaladi, suv ta'sir etmaydi. Paralonni gazlamaga, qog'ozga va ko'pgina materillarga yopishtirish mumkin.

**Penoplast -** Anchagina pishiq, juda engil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqalarda foydalaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P"Mehnat va uni o`qitish metodikasi" O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.

2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012 yil

## 20-Mavzu: Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

**Reja**

1.Plastillin bilan ishlash haqida ma’lumot berish.

2.Taqdimot texnologiyasi asosida ma’ruzani taqdim etish.

3.Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish.

**Tayanch iboralar:**o’yinchoq, loy, plastilin, haykaltarosh, hunarmand

**O’quv faoliyatining natijasi:**

***Talabalar bilishi kerak***

1.Plastillin va uning turlari haqida ma’lumotlarga ega bo’ladi.

2.Plastillinni xususiyatlari va ishlov berish usullari haqida o’rganadilar.

3.Mehnat darslarida ish joyini to’g’ri tashkil qilish talabalarini o’rganadi.

4.Amaliy ish qurol turlari va ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishadi.

5.Sanitariya gigienik talablarni o’rganadi

**Blits savollari**

1. Plastillin qanday massa?
2. Plastillin qanday xususiyatlarga ega?
3. Plastilinni qo’lda qanday tayyorlanadi?
4. Loy qanday turlarda bo’ladi?
5.Loyning xususiyatlari qanday?

**Blits harita**

| № | Talaba ning javobi | To’g’ri javob | Noto’g’ri javob | Javoblar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |

**Jami:**

10-9 ta – “0,5”, 8-7 ta – “0,4”, 6 ta – “0,3”, 5 ta – “0,25”, 4 ta – “0,2”.

Talaba ______________________________ _______ball

**Taqdimot texnologiyasi**

Boshlang’ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg’ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltoroshlik va sapoldo’zlik ishlarining boshlang’ich elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o’rgatishni nazarda tutadi.

Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har bir o'qituvchidan mazkur soha bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustlarida ko'proq ishlashlari, xaykaltoroshlik va sapoldo'zlik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli uyinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qaxromonlari yasaladi. Uyinchoq – dekorativ sa'natning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, qadim asirlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan.

Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra o'yinchoqlarni assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.

Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan matni narsalar yasashga yaroqli yoki yo'qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi.

**Loy va plastilin** ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilin har-xil oddiy va murakkab turlari bo'lib, tayyorlash retseptlari bor plastillin bilan ishlashda ayrim qonun-qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi. Plastilin sovuq bo'lganda ancha qattiqlashib qoladi. Ish boshlashdan oldin esa uni bir oz yumshatish kerak bo'ladi. Buning uchun plastilin solingan qo'ticha mashg'ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbaiga yaqinroq joyga qo'yiladi yoki salgina namlangan qo'lning kaftida tutib turiladi. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo'ladi. Plastilinni qo'lda uzoq vaqt ushlab turish yaramaydi. Chunki plastilin haddan tashqari yumshab, yopishqoq bo'lib qoladi.

**Birinchi variant** – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

**Ikkinchi variant** - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qushib, qulga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq buyoq massasi qushib va puxta aralashtirib buyash mumkin.

**Uchunchi variant-** 1 qism tuprog'ida 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qulga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qulda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastillin bilan ishlashda ayrim qonun-qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi. Plastilin sovuq bo'lganda ancha qattiqlashib qoladi. Ish boshlashdan oldin esa uni bir oz yumshatish kerak bo'ladi. Buning uchun plastilin solingan qo'ticha mashg'ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbaiga yaqinroq joyga qo'yiladi yoki salgina namlangan qo'lning kaftida tutib turiladi. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo'ladi. Plastilinni qo'lda uzoq vaqt ushlab turish yaramaydi. Chunki plastilin haddan tashqari yumshab, yopishqoq bo'lib qoladi.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va su'niy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Mehnat darslarida uchun magazinlarda ochdan to to'q rangacha bo'lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar, pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo'g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Tsirkul, o'lchov, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi.

Tayyor narsalardagi changlarni yo'qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har – xil mo'yqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Haykaltoroshlik** haqida qisqacha ma'lumot. **Haykaltoroshlik** – ta'sviriy san'at turlaridan biridir. San'atning bu turining xususiyati tasvirni hajmi – formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltoroshlik yolg'iz tur emas. Undan tashqari, barelef va gorelef ham mavjud relef aylana haykaltoroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltoroshlik formalaridan idish – tovoq sathini, binolarning old tomoni, intereri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

**Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar.**

1. Yumoloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.
2. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
3. Shar yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
4. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qulning holati doimo o'zgarib turadi.
5. Chuzish – sharikning bir qismi chuziladi.
6. Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish.

Loy va plastillin bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda ish joyini bekamu-ko'st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shuni kayd etish lozimki, Uzbekiston issik iklim sharoitida narsalar yasash buyicha amaliy mashgulotlarni loydan bajargan ma'kul, chunki plastilindan yasalgan narsaar issikda uz shaklini tez yukotadi.

Ishni oddiy predmetlar: sabzavot-mevalarni yasashdan boshlash kerak. Bunda tayyor namuna yoki rasm buyicha ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilar narsalarni yasash usullarini egallab olganlaridan sung uyinchoklar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga utishlari mumkin.

**Klaster metodi.**




**Savollar**

1. Loyni tayyorlash texnologiyasini gapirib bering?
2. Plastilin va loyga ishlov berish usullari?
3. Mashg'ulotga kerakli materiallar qanday joylashtiriladi?
4. Qanday asboblar bilan ishlaganda texnika xafvsizligi qoidalaridan foydalaniladi?
5. Plastilin va loy bilan ishlashning maqsadi?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Plastillinni tayyorlash usullarini o'rganing.
2. Plastillinni xususiyatlarini tahlil qiling.

**Glossariy**

**Haykaltoroshlik** – ta'sviriy san'at turlaridan biridir.
**O'yinchoq-**dekorativ sa'natning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, qadim asirlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan.
**Loy va plastilin-**turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P"Mehnat va uni o`qitish metodikasi" O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.
2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil
3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil

## 21-Mavzu: Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi

**Reja:**

1.Gazlama va uning turlari

2.Gazlamaga ishlov berish usullari

3. Gazlama bilan tishlash metodikasi

4.Gazlama bilan ishlash mavzusiga muammolisavol, masalavavaziyatlarni taqdim etish.

**Tayanch iboralar:**“Baxya”, “chok”, ip, tola, gazlama, mehnatsevarlik

**O’quv faoliyatining natijasi:**

***Talabalar bilishi kerak***

1.Gazlamavauningturlarihaqidabilganlarinigapiradi;

2.Muammolisavol, masalavavaziyatlarnihaletishorqalio’ztasavvurlarinianiqlashtirishadi;

3. Mehnatdarslaridagazlamabilanishlashhaqidatasavvurgaegabo’ladilar;

4.O’quvchilargazlamavauningturlarihaqidatanishishadi.

Tikish darslarida beriladigan politexnik bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarni tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o’rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqariuvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi.

Amaliy mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilar turli asboblar hamda moslamalar, asosan qaychi, igna va o’lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Gazmol bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o’z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko’nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o’sadi va takomillashadi. Gazmol, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o’quvchilarni ranglarni birikishi, gazmol va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e’tibor berishga o’rgatadi.

O’qituvchi o’quv materiallarini darsda o’quvchilarni politexnik ta’lim bilan qurollantirish amaliy ishlar bilan birikib ketadigan qilib qurollantiradi. U darsda ta’limni o’quvchilarning faolliklarini, aqliy qobiliyatlarini o’stiradigan metod va usullardan foydalanadi.

1-sinf o’quvchilar qo’yidagi ko’nikma, bilim va malakalarni egallab olishlari kerak:

1. Gazmol haqidagi umumiy tushunchalar bilan tanitirish. O’simlik (paxta, zig’ir)dan tayyorlanadigan gazmollar haqida dastlabki ma’lumotlar beriladi. Gazmolning tuzilishi, ulardagi iplarning to’qilishi haqidagi ilk ma’lumotlar beriladi.

2. Gazmollar asosan nimalarga mo’ljallanganligi bilan tanishtirish: kiyim-kechak, turmush narsalarga va shu kabilar.

3. Ishlatilishi (tikish, yamash, to’qish iplari) va yo’g’on-ingichkaligiga ko’ra farqlanadigan iplar bilan tanishtirish.

4. Tikish va to'qishda ishlatiladigan asosiy asboblar hamda moslamalar (nina, qaychi, angishvona, to'g'nog'ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish.

5. Sanchiluvchan asbob va moslamalarni ishlatganda xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish. Tikish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalari, gigiena talablari.

6. Kerakli uzunlikdagi ipni o'lchash, uni qirqish yo'llari bilan tanishtirish (ularni tishlab, totib uzishga yo'l qo'ymaslik), lentani o'lchash va qirqish.

7. Ip va tolaga ishlov berish usullaridan biri bilan tanishtirish.

8. Yug'on ip va toladan to'qishga o'rgatish.

9. Ninaga ip o'tkazish, tugun solish, ipni mustahkamlashni o'rgatish.

10. "Baxya", "chok" (biriktiruvchi va bezovchi) tushunchalari bilan tushuntirish.

11. Oddiy andazalar tayyorlash. O'qituvchi chizmasiga muvofiq to'g'ri burchak shaklidagi andazalar qilish.

12. Gazlamani andazaga ko'ra chamalash.

13. Gazlamani qaychi bilan qirqish usullarini tanishtirish.

14. Gazlamani qalam yoki bo'r bilan belgilangan to'g'ri yoki egri chiziq bo'ylab qaychida qirqishni o'rgatish.

15. Gazlamadan narsalar tikishni o'rgatish.

16. Tugma qadash usullarini o'rgatish.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar natural ipak va jun tolali materiallarni, to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishadilar. Namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andaza bichish olishni va gazlamaning xususiyatlarini (pishqligi, egiluvchanligi, tuzilish) ni o'rganadilar.

### 1-muammoli masala

**1-misol.** Dars vaqtida faol ishtirok etgan, lekin uy vazifasini sifatli bajarmagan o'quvchiga ijobiy baho qo'yilmaydi.

**2-misol.** O'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirgan, ushbu amaliy topshiriqni bajarish uchun ko'nikma va malakalarga ega, lekin bajargan ishini so'zlab ifodalay olmagan o'quvchiga 5 qo'ysa bo'ladi.

**3-misol.** Sinfdagi kuchli o'quvchilariga har bir darsda qo'shimcha topshiriq berish shart emas

**Sizning-cha, misollarda bayon etilganlar to'g'rimi? O'z fikringizni asoslang.**

### 2-muammoli savol

Gazlama bilan ishlashda ish unumini oshirish usullarini tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?

### 3-muammoli vaziyat

Tasavvur qiling: Mehnat darsida 3-sinf o'quvchilariga gazlamadan nina qadagich tikish o'rgatildi. O'quvchilar ishni mustaqil bajarishda. O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar tez va sifatli nina qadagich tikishdi. O'qituvchi bajarilgan ishlarni

nazorat qilib o’g’il va qiz bolalarga bir xil baho quydi. Mazkur vaziyatda o’qituvchiga baho bering. Nimaga bunday vaziyat hosil bo’lgan. Qay biriga to’g’ri baho qo’ygan? Har birini alohida tavsif eting.

**“Toifalash”jadvali**

**Gazlama va uning turlari**

| Tabiiy gazlama | Su’niy gazlama |
|---|---|
| | |
| | |

**Sinov-savollari**

1. Gazlama turlaridan misollar keltiring?
2. Gazlama qayerlarda ishlab chiqariladi?
3. Gazlamaning xususiyatlari qanday?
4. Qanday gazlamalarni bilasiz?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Gazlama va uning turlarini o’rganing.
2. Gazlama va uning turlarini tahlil qiling.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P“Mehnat va uni o`qitish metodikasi” O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.

2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012 yil

3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 3-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012 yil

## 22-Mavzu: Yumshoq o'yinchoqlar tikish darslarini tashkil etish metodikasi

**Reja**

1.Yumshoq o'yinchoq xaqida ma'lumot berish.

2.Yumshoq o'yinchoq turlari xaqida

3.Yumshoq o'yinchoqni tikish usullari

4.Yumshoq o'yinchoq tikish texnologiyasi

5.Yumshoq o'yinchoq tikishni ahamiyati

**Tayanch iboralar:** igna, ip, qaychi, bigiz, ombir, o'yinchoq, averla

**O'quv faoliyatining natijasi:**

***Talabalar bilishi kerak***

1.Yumshoqo'yinchoqlarxaqidabilganlarinigapiradi;

2.Yumshoqo'yinchoqlartikishishlaribilantanishadi;

3.Yumshoqo'yinchoqlartikishishlariningasosiytushunchalarinio'rganadi;

4.Yumshoqo'yinchoqlartikishdarslarinitashkiletishningasosiytalablarinio'rganadi;

O'yinchoqlar – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu anik predmetning kichiraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir. Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o'yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o'ynash ishtiyoqini tug'diradi. O'yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoqo'yinchoqlarbilanturliyoshdagibolalarshug'ullanishlarimumkin. Aytishlaricha, yumshoqo'yinchoqyasabo'ynashfaqatginakichikbolalargaxosdeb, lekintajribalarshuniko'rsatadikiyumshoqo'yinchoqlarbilanfaqatbolaremas, balkikattayoshdagibolalarhamqiziqadilar. Kichiko'quvchilaro'yinchoqlarningengoddiyturlari, kattaroqlariesaqo'g'irchoqteatriqo'g'irchoqlariniturliholatdagio'qinchoqlarnitayyorlaydilar. O'quvchilargao'yinchoqlaryasashnio'rgatishuchunavvaloo'qituvchio'zibusan'atniyaxshio'zlashtirganbo'lishikerak. O'zi tayyorlagan chiroyli o'yinchoqlarnio'quvchilargako'rsatarekan, ulardahamo'yinchoqlaryasashqiziqishipaydobo'ladi.

Yumshoq o'yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O'yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o'zlari o'ylab qo'shgan g'oyalari uchun rag'barlantirishlari kerak.

Ishnitashkilqilishdanoldinqo'yidagiashyolarvaasboblarnitayyorlashkerak:

**Asboblar:**

1. **Ignalarningturlikatta-kichiklari.**
2. **G'altakliturlirangdagiiplar.**
3. **Ranglimo'linaiplar.**
4. **Turlirangdagiipakliiplar.**
5. **Qaychi.**
6. **Bigiz.**

7. **Ombir.**
8. **Dazmol.**
9. **Angishvona.**
10. **Qalam.**

**Ashyolar:**

Yumshoqo'yinchoquchunilojiborichayangimatoyokiavvaldanyuvib, dazmollangansatin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junlimatolarzarur. Hayvonlarnitayyorlashuchuntuklibumaziy, su'niyvatabiiyjunmatolaridanfoydalaniladi.

Tana yuz ko'rinishini tasvirlovchi o'yinchoqlar uchun shifon, su'niy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun su'niy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averla qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoqo'yinchoqtayyorlashdaishninimadanboshlashkerak. Dastlabbolalarniignaniushlashdan, ignato'g'nog'ichdano'rinlifoydalanishdan, so'ngengoddiychokturlarinitikishdanboshlashzarur. Chokturlarinio'rgatishuchunamaliybirnechtaishtavsiyaetiladi.(Ro'molchatikish, xaltachatikishvaboshqalar).Buesabolalarnichokturlarinitikishmalakasiniegallashgashiroityaratadi. Bolalardaignabilanishlashmalakasihosilbo'lgandankeyinoddiymodeltayyorlashgao'tiladi. Bolalarqo'ldatikadilar, kattaroqbolalartikuvmashinasidanfoydalanishmumkin.

**Yumshoqo'yinchoqtikishizchilligiqo'ydagichabosqichlardaniborat: Matotanlash, g'ijimmatonidazmollash, matogaandozachizish, qismlarnibichish, tikish, ichinito'ldirish, ustinijihozlash.**

Andozakartondantayyorlanadi, bichishgamatoikkigabuklanadi, uningchaptomonigaandozaqo'yibbichiladi, yaxshiichiochiladi, qalambilantayyorlanayotganbo'lsa, andozaharbirbo'lakmatoustigaipiniqiyalabyo'nalgantomonigaqo'yiladi. Toqmatobo'lsaandozaoqyokisariqrangiqalambilanochrangimatobo'lsaqarorangliqalamdantayyorlanadi. Chizibolinganmatohartomondan 0,5 smchokuchunqoldirilib, qirqiladi, so'ngqo'ldayokimashinadatikiladi. Burchaklaro'ngtomongachiqariladi. Tayyortikilganformametaltayyoqchayordamidao'tmastomonibilano'ngigaag'dariladi. Agaro'yinchoqtabiiyjundantayyorlanayotganbo'lsachokhaqqiqoldiriladi, chetlariqalinipdatikiladi. Hayvonvaqushlarnitikishqo'ydagiqoidabo'yicha: avvaltanavaqorinqismlaribir-birigatikiladi. Formaniikkiyarmitayyorbo'lgandanso'ngularnibirgatikiladi. Formao'ngigaag'darilibqoldirilganjoydanichito'ldiriladi, qismlaribir-birigako'rinmaschokbilanbirlashtiribtikiladi. O'yinchoqichipaxtayokimaydamatoqiyqimlaribilanto'ldiriladi.

**O’yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.**

1- **guruh: Yengil to’ldiriladigan o’yinchoq (tovuq, marteshka qo’g’irchoq, pigvin, o’rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo’tikcha, jirafa).**
2- **guruh: Qo’g’irchoq teatri uchun qo’g’irchoq (Cho’chqa, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo’g’irchoq, mushuk sim sixga o’rnatilgan o’yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).**

O’yinchoqlarniyasashbolalarnifikrlashqobiliyatiniriojlantiradi, saviyasinikengaytiradi, ijodiyotgaqiziqishinitarbiyalaydi. Ularo’zlariyasagano’yinchoqlargao’zlariniajoyib-g’aroyibistaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarinisarflaydilar. Shununguchunularningmehnatlariniqadrlabvamehnatqilishgaqiziqtirishlozim. Buesaulardamaqsadgaintiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o’zaroyordamberish, mehnatsevarlik, e’tiborlilik, batartibliknitarbiyalaydi.

Talabalarga darsda egallagan bilimlarini tahlil qilish uchun “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi qo’llaniladi.

| Bilardim | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

**Savollar.**

1. O’yinchoq qanday predmet.
2. Qanday gazlamalarni bilasiz.
3. O’yinchoqdan qanday andoza olinadi.
4. O’yinchoqni tayyorlash nechi xil guruhga ajratiladi.

**Mustaqish ish topshiriqlari**

1. Yumshoq o’yinchoqlardan namuna keltiring.
2. O’yinchoq yasashdagi bosqichlarni sanab o’ting.

**Glossariy**

**O’yinchoqlar** – bolalar o’yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P“Mehnat va uni o`qitish metodikasi” O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.
2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012 yil
3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 3-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012 yil

## 23-Mavzu: Loyihalash va modellashtirish ishlari darslarini tashkil etish metodikasi

**Reja**

1.Konstruktorlik va modellashtirish xaqida

2.Konstruktorlik ishlar tashkil etish

3.Modellashtirish ishlari tashkil etish

4.Konstruktorlik va modellashtirish ishlarini metodikasi

**Tayanch iboralar:**loyiha, konstruktor, kran, mehnatsevarlik.

**O'quv faoliyatining natijasi:**

***Talabalar bilishi kerak***

1.Loyihalash va modellashtirish ishlari xaqida ma'lumotlarga ega bo'lish;

2.Loyihalash va modellashtirish ishlari bilan tanishish;

3.Loyihalash va modellashtirish ishlarining asosiy tushunchalarini o'rganish;

4.Loyihalash va modellashtirish ishlari darslarini tashkil etishning asosiy talablarini o'rganish;

**Mavzuni nazariy ma'lumotlar taqdimoti**

Texnik modellash mashg'ulotlarda namuna rasm va chizmalar berilgan o'lcham konstruktor naborining detallari yoki turli materiallarni qo'llab og'zaki tasvirlash bo'yicha texnik o'yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar texnik o'yinchoqlar va modellarni ishlatib namoyish qilishlari, ularni boshqarishlari, shuningdek namoyish jarayonida konstruktsiyaning detal va qismlarini aytishlari, ularni nimaga mo'ljallanganligini bilishlari kerak.

Mashg'ulotning bu turi o'quvchilarda konstruktorli-texnik tafakkurni, mustaqil rejalashtirish va o'ylab qo'yilgan texnik buyum(kran, avtomashina, buldozer, raketa va shu kabilarni) modelini amaliy bajara olish ko'nikmalarini o'stirishda juda muhim o'rin tutadi.

Moddelash uchun tanlanadigan ob'ektlar texnikaning zamonaviy yutuqlarini aks ettirilishi lozim. Modellash ob'ektlari ijtimoiy foydali yo'nalishga ega bo'lishi, ta'lim jarayonini ko'rgazmali qurollar bilan jihozlashga yordam berishi kerak.

O'qituvchi chizmachilikka doir ishlarni asta-sekin kiritib boradi.

Texnik modellash metall konstruktor bilan ishlash katta ahamiyatga ega.

1-sinfdagi texnik modellash bo'yicha ishni bajarish jarayonida:

1. O'quvchilar mashina, uning modeli va maketi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.
2. Qo'l asboblari va moslamalarning tuzilishi bilan tanishadilar. Chunki ularning har ikkalasi bir izchilikka asos qilib olingan.
3. Qo'l asbablarini tuzilishi va nimalarga mo'ljallanganligini bilish stanoklarni o'rganish uchun asbob bo'lib, ular bolalarning politexnik bilim doiralarini kengaytiradi.

4. O’quvchilar avval o’qituvchi yordamida, so’ngra mustaqil tarzda modelni ko’ra bilishlari: ularning xususiyatlarini, ayrim qismlarini, qismlar o’lchovining bir-biriga munosabatlarini ajrata bilashlari.

5. Modelni tayyorlash uchun qanday material zarurligi aniqlay olishlari.

6. Ish joyini jihozlashlari.

7. Belgilash, o’lchash, ishlov berish, mantaj va pardozlash bosqichlarini bajarishlari.

8. Modelni sozlash va boshqarishni.

9. O’zini-o’zi nazorat qilish va o’z mehnatini hisobga olishlari kerak.

Boshlang’ich sinf mehnat ta’limida texnik modellash – uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o’yinchoqlarni, shunungdek chizmali namuna asosida modellarni yasash mehnatining maxsus turi sifatida ajratilgan.

Dastlabki darslardayoq o’quvchilar tabiiy materiallar, qog’oz va karton, gazlama, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnik elementlar bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig’ish, detallarni biriktirishning qattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasvvurga ega bo’ladilar.

O’quvchilar detallarni biriktirishning turli usullari shunungdek, mix bilan tirqish qoldirib biriktirish kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar pishiqlikni oshirish, ishqalanishning zararli ta’sirini bartaraf etib, foydali ta’sirdan foydalanish, o’zlari ishlayotgan materiallarning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo’ladilar.

O’quvchilardanarsalarniyasashustidaishlashtartibinimo’ljallash, tayyorlash, yig’ish, bezash, amaldatekshirish, nuqsonvakamchiliklarnibartarafqilish, ishjoyinito’g’ritashkilqilishkabilarhaqidatasavvurishakllanadi. Bularningbarchasidankeyinchalikmodellarhamdatexniko’yinchoqlarniyasashdafoydalaniladi, ularbolalarningijodiyfikrinio’stiradi, bolalargato’planganmehnattajribalariniatrofdagilargatexnikabilanbog’lashlarigayordam beradi.

**Talabalarga darsda egallagan bilimlarini tahlil qilish uchun “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi qo’llaniladi.**

| Bilardim | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

## Savollar

1. Texnik modellash  nima.
2. Modellash ishlarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. Boshlang'ich sinflarda texnik modellash qanday turidan foydalaniladi.

## Mustaqish ish topshiriqlari

1. Texnik modellar ish bosqichida ish asboblaridan foydalanish qoidalari haqida gapiring.
2. Modellarni turlarini sanab bering.

## Glossariy

***Modul*** – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.

***Ishlab chiqarish amaliyoti*** – kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishninng so'nggi oylarida o'tkaziladi.

**Texnik modellash** – uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o'yinchoqlarni, shunungdek chizmali namuna asosida modellarni yasash mehnatining maxsus turi sifatida ajratilgan.
**Texnik modellash**-metall konstruktor bilan ishlash katta ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P"Mehnat va uni o`qitish metodikasi"  O`quv qo`llanma.  2007-yil TDPU.

2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak"  2012 yil

3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak"  2012 yil

## 24-Mavzu: Qishloq xo'jaligi mehnati darslarining mazmuni va undan foydalanish usullari

**Reja**

1.Qishloq xo'jaligi mehnatining maqsadi
2.Qishloq xo'jaligi mehnatining
mazmuni va unga qo'yiladigan talablar
3.Qishloq xo'jaligi mehnatida tajriba ishlari

**Tayanch iboralar:**urug', parvarish, xo'jalik, parnik.

**O'quv faoliyatining natijasi:**
***O'quvchilar bilishikerak***
1. Qishloqxo'jaligimehnatixaqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
2. Qishloqxo'jaligimehnati mazmuni bilan tanishish;
3. Qishloqxo'jaligimehnatiningasosiy tushunchalarni o'zlashtirish;
4. Qishloqxo'jaligimehnati darslarini tashkil etishda texnika-xavfsizlik qoidalari haqida to'shinchalarga ega bo'lishi kerak

**Mavzuni nazariy ma'lumotlar taqdimoti**

Mehnat ta'limi dasturida qishloq xo'jaligi mehnati bulimining maqsadi qishloq xo'jaligi va eng ko'p tarqalgan gullar, sabzavot, meva hamda o'simliklarni o'stirish haqidagi bilimlar mazmunini belgilab beradi.

Bu darslarda o'quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab o'quv tajriba hovlisida o'simliklarni o'stirishga oid ishlar bilan shug'ullanadilar. Jonli tabiat burchagida 1- sinf o'quvchilari xona o'simliklarini parvarishlashda hosil qilingan malakalarini mustahkamlaydilar.

O'quv tajriba hovlisida olib boriladigan ishlar sabzavot, gulli va manzarali o'simliklarni ko'chat qilish, o'stirish, manzarali va mevali daraxtlarni parvarish qilish, ayrim dala o'simliklarini tajriba uchastkasida o'stirishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinfda qishloq xo'jalik mexnati ishlarida o'quvchilarga faqat o'simliklarni o'stirishga oid bilim va malaka hosil qilish bilan cheklanmay, balki tabiatni asrashga hamda qishloq xo'jaligi mehnati ishlarida jamoa bo'lib ishlashlari va maqsadga erishish uchun astoydil harakat qilishlariga e'tibor qaratish taqoza etiladi

O'qituvchi maktab hovlisida olib boriladigan ishlarda gulli, manzarali o'simliklarni o'stirish bilan cheklanmasligi, shu asosda bolalarga dasturda talab etilgan bilim va malakalarni berishni ko'zda tutishi kerak.

Boshlang'ich sinfda bolalar faqat o'simliklarni o'stirishga oid bilim va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, balki eng muhimi qishloq xo'jaligi mehnatini

sevishlari, uyushib ishlashlari va maqsadga erishish uchun astoydil harakat qilishlari kerak.

2 sinf dasturida ko'zda tutilgan qishloq xo'jaligi mehnati turi va murakkabligi jihatdan xilma-xildir, binobarin bolalar bu ishlarni bajarishga uyushtirish ham har xil bo'ladi. Bu bolalarning tayyorgarlik darajasi va ma'lum bir ravishda ularning oldiga qo'yilgan maqsadiga bog'liq. O'qituvchining vazifasi mehnatni mumkin qadar bolalarning uyushqoqligini, do'stligini va o'rtoqlarcha o'zaro bir-biriga yordam berishni mustahkamlaydigan formada tashkil etishdir.

3 sinfda bolalar sabzovat, gulli va manzarali o'simliklarni ko'chat qilib o'stirishga oid tajriba almashish ishlarining asosiy mavzusi o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini boshqarishning usul va vositalari bilan tanishadilar. Uchinchi sinfda o'quvchilar ikkinchi sinfda boshlagan ayrim o'simliklarni turlarini o'rganish va navlarini sinash ishlarini davom ettirish bilan birga, o'simliklarni o'g'itlash va qo'shimcha oziqlantirishni tajriba qiladilar.

3-sinfda o'quvchilar pamidor ko'chati yoki bir yillik gulli, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qo'shimcha oziqlantirishga tegishli eng yaxshi o'g'itni aniqlaydilar. Shu maqsadda bolar bir yashikdagi ko'chatni to'liq mineral o'g'it eritmasi bilan, ikkinchisini organik o'g'it eritmasi bilan, uchunchi yashikdagini esa mahalliy o'g'it bilan oziqlantiradilar.

Qishloq xujaligi darslarini sinfda xam maktab uchastkasida xam muvaffakiyatli utkazishning asosiy sharti barcha o'quvchilarni ish bilan band bulishidir. Shuning uchun xam bu darslarga tayyorlanishda mexnat jarayonida o'quvchilarni uyushtirish yullarini puxta uylab kurish lozim.

Agarda sinfda 30 tadan ortik o'quvchi bulsa, sinfni ikki guruxga ajratish maqsadga muvofikdir. O'quvchilarni maktab uchastkasiga olib chikishdan oldin ularga xatti-xarakat qoidalarini eslatish lozim. Yulaklardan yugirilmasdan xarakat kilinsa, usimliklar oyok ostida toptalmaydi. Ayniksa xaskash, ketmon kabi dexkonchilik asboblari duch kelgan joyga tashlansa utgan odamning oyogiga urilib jaroxatlashi mumkin.

O'quvchilarga qishloq xujaligi ekinlarini parvarish qilish ishi ularning usish va rivojlanishini, ular tomonidan muntazam kuzatilishini tashkil etish kerak. Kuzatishni ikki boskichda amalga oshirish mumkin: birinchisi – usimlikni rivojlanishining turli boskichlarida bevosita kuzatish, ogzaki tasvirlash, ularni ulchash. Ikkinchisi - kuzatish natijalarini kayd etish. O'quvchilar ukituvchi aytib turgan narsalarni kuzatish daftariga yozadilar.

**Tajribaning umumiy mavzusi**:

1. Pomidor yoki gulli, manzarali o'simliklar ko'chatini stakan, yashik yoki parnikda o'stirish.
2. Ortiqcha shoxlarni olib tashlashning pamidorning pishish muddatiga ta'siri.
3. Bir, ikki va uch poyali pomidorlarni o'stirish.
4. Mineral va organik ozuqalarning pomidorning o'sishiga va rivojlanishiga ta'siri.
5. Turli nav pomidorlarni bir xil to'proqda o'stirish
   ( boshqa sabzovatlar ustida ham shu tarzda tajriba olib borish
   mumkin). O'rni bilan ish davomida paydo bo'ladigan savollarni

hal eta oladigan oddiy tajribalar ham o'tib turish zarur.

Tajriba davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga, tug'ilgan savollarini mustaqil hal qilishlari mumkin qadar kengroq imkon yaratib berishlari lozim. Shunda ular tajriba o'tkazish yo'llarini, shunungdek tajribadan ko'zda tutilgan maqsadni yaqqol tushunib oladilar.

Bolalar uchun urug'ni stakan, yashik va erga ekish, yaganalash, o'simliklarni o'sishiga va rivojlanishiga qanday ta'sir etishini tajriba qilib ko'rish ayniqsa qiziqarlidir. Masalan pomidor urug'i 18 fevralda ivitildi, bo'rtgan urug' 24 fevralda tuproq to'ldirilgan yashik va qog'oz stakanchalarga ekiladi. Yashikdagi va stakandagi o'simliklar sug'oriladi va to'prog'i yumshatiladi, qisqasi yashik va stakandagi o'simliklar bir xil parvarish qilinadi. O'simliklar ikki kundan keyin nish uradi. Dastlabki 2 barg ko'rinishi bilan o'simlik urug' sepiladigan yashikdan olinib, ko'chat ekiladigan yashikka o'tkaziladi. Ko'chirib o'tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismi olib tashlanadi, keyin o'simlikning faqat ildizi emas, balki poyasining ham bir qismi ham tuproqqa ko'miladi. 22 mart o'simlik ko'chat yashikdan olinib, birinchi asosiy bargcha poyasini tuproqqa ko'mib parnikka o'tkaziladi.

Aprel oyining boshida bolalar ko'chatlarning aralash usulda ochiq joyga ekdilar va bir oy davomida kuzatdilar. Qog'oz stakanchalarda o'stirilib, keyin o'tkazilgan o'simliklar bir joyga ekilib, shu erda o'sgan o'simliklardan tubdan farq qiladi. Tarmoqdagi pamidorning poyasi kalta, baquvvat, barglari sersuv, to'q yashil rangli, yaxshi rivojlangan ildizida juda ko'p tomirchalar paydo bo'lgan. Bu ildizchalar o'simlikning erdagi poya qismidan o'sib chiqqan. Aksincha bir joyda urug'dan o'stirilgan pamidorning ildizi bequvvat va kam edi. Buning sababi bolalardan so'ralganda bolalar bu savolga osongina javob berdilar.

Biz ko'chirib o'tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismini olib tashladik. U asta-sekin o'sa boshladi, yonidan chiqqan ildizchalar esa tez o'sib ketdi, poyadan ham shoxchalar o'sib chiqdi. O'simlikni poyasi bir oz tuproqqa ko'milgani uchun qo'shimcha ildizlar o'sib chiqdi.

Tajriba natijasida bolalar pamidor ildizini sistemasining o'sishi va rivojlanishini kishilarning harakatiga bog'liq ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Tajriba uchun ikki hovli bo'lishi kerak. Birinchi hovlidagi pamidorning bachki shoxlari olib tashlanadi, ikkinchi hovlidagi pamidorning shoxlari olinmaydi. Tajriba vaqtida o'qituvchi bolalarga bachki shoxlarni yulish usullarini o'rgatadi. Ba'zida bolalar bir va ikki poyali o'simlikni birinchi gulbargi ostidan bargini sezmay qoladilar. Natijada bir poyali o'simlik o'rniga ikki poyali, ikki poyali o'simlik o'rniga uch poyali o'simlik o'sadi.

Bundan tashqari bolalar ikki poyali o'simlikning ikkala poyasida ham hosil payqaydilar. U poyali o'simlikning hosili ikkita poyasida, ayrimlarida esa faqat asosiy poyasida ekanligini guvohi bo'ladilar. O'quvchilar ikki poyali pamidorning mevasi yirikroq bo'lib tezroq pishishini bilgach, qishloq xo'jaligi uchun ikki poyali pamidor o'stirish foydali degan xulosaga keladilar.

Sungra o'quvchilar tajriba asosida ruy bergan jarayonni kuzatishlari asosida suxbatlar olib boradi.

**Qishloq xo'jaligi mehnatining mazmuni va unga qo'yiladigan talablari**

- Ish joyini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish;
- Xona o'simliklari va urug'lar haqida bilimlarga ega bo'lish;
- O'simliklarni parvarish qilishni o'rganish;
- Urug'lardan o'simliklarni ko'kartirish texnologiyasini o'rganish;
- Tabiat va tabiiy materiallarga bo'lgan munosabatlarni shakllantirish ,talab etiladi

**Tajriba ishlarini amalga oshirish bosqichlari**

1.Pomidor yoki gulli, manzarali o'simliklar ko'chatini stakan, yashik yoki parnikda o'stirish.
2.Ortiqcha shoxlarni olib tashlashning pamidorning pishish muddatiga ta'siri.
3.Bir, ikki va uch poyali pomidorlarni o'stirish.
4.Mineral va organik ozuqalarning pomidorning o'sishiga va rivojlanishiga ta'siri.
5.Turli nav pomidorlarni bir xil to'proqda o'stiriladi

Talabalarga darsda egallagan bilimlarini tahlil qilish uchun "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi qo'llaniladi.

| Bilardim | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

**Savollar**

1. Qishloq xo'jaligi mehnatining asosiy maqsadi?
2. Qishloq xo'jaligi mehnatining vazifalari?
3. O'simliklarni parvarishlar usullari qanday?
4. O'simliklarni oziqlantirish texnoldogiyasi?
5. Qishloq xo'jaligi mehnatining ahamiyati?

**Mustaqish ish topshiriqlari**

1. Qishloq xo'jaligi ekinlari nomini yozing.
2. Ish turi bo'yicha dars ishlanmasini tuzing.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P"Mehnat va uni o`qitish metodikasi" O`quv qo`llanma. 2007-yil TDPU.
2. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 2-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil
3. Sanaqulov X, Xodieva D. Sanaqulova A "Mehnat ta'limi" 3-sinf darsligi. T., "Nafis bezak" 2012 yil